

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI
PhD.05/2025.27.12.Tar.07.01 RAQAMLI ILMY KENGASH ASOSIDA
FAN DOKTORI (DSc) ILMY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK
ILMY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI DAVLAT MUZEYI**

DARMONOVA MASHXUROXON ADILJON QIZI

**O‘ZBEKISTONDA QATAG‘ON SIYOSATI TARIXINING
MANBASHUNOSLIGI VA MUZEYLASHTIRISH TAMOYILLARI
(XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr)**

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

17.00.06 – Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish,
ta‘mirlash va saqlash

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent, 2026

Fan doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the abstract of Dissertation of Doctor of Sciences

Содержание автореферата диссертации доктора наук

Darmonova Mashxuroxon Adiljon qizi

O‘zbekistonda qatag‘on siyosati tarixining manbashunosligi
va muzeylashtirish tamoyillari (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr) 3

Darmonova Mashxurokhon Adiljon qizi

Source studies and principles of museification of the history of repression policy
in Uzbekistan (the second half of the 19th century – 20th century) 35

Дармонова Машхурошон Адилжон кизи

Источниковедение и принципы музейфикации истории политики репрессий
в Узбекистане (вторая половина XIX – XX век)..... 69

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ 75

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI
PhD.05/2025.27.12.Tar.07.01 RAQAMLI ILMY KENGASH ASOSIDA
FAN DOKTORI (DSc) ILMY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK
ILMY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI DAVLAT MUZEYI**

DARMONOVA MASHXUROXON ADILJON QIZI

**O‘ZBEKISTONDA QATAG‘ON SIYOSATI TARIXINING
MANBASHUNOSLIGI VA MUZEYLASHTIRISH TAMOYILLARI
(XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr)**

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

17.00.06 – Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish,
ta‘mirlash va saqlash

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent, 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Tar508 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi veb-sahifasida (<https://history-museum.uz>) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Baxtiyor Vaxapovich Hasanov

tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Alisher Xudoyberdiyevich Doniyorov

tarix fanlari doktori, professor

Munisa Sabirovna Muhamedova

tarix fanlari doktori (DSc), professor

Feruz Sayfullayevich Boboyev

tarix fanlari doktori (DSc)

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi huzuridagi PhD.05/2025.27.12.Tar.07.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi fan doktori (DSc) ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil «__» _____ soat __dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko‘chasi, 3-uy. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining kichik majlislar zali. Tel.: (99871) 239-10-83; faks: (99871) 239-10-83; e-mail: uzb.historymuseum@gmail.com O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (___raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Ziyolilar ko‘chasi, 13-uy. Tel: (99871) 262-74-58; faks: (+99871) 262-34-41).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil «__» _____ dagi ___ - raqamli restr bayonnomasi).

J.X. Ismailova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor

T.X. Norkobilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, t.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

R.E. Holiqova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ilmiy hamjamiyatida mustamlakachilik siyosati va totalitar tuzumlar oqibatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib borishi mazkur masalani milliy tarixshunoslikda, ayniqsa, manbashunoslik va muzeyshunoslik yo'nalishlarida tadqiq etishni o'ta dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Mavzuning bunday ahamiyat kasb etishi, o'z navbatida, tarixiy adolatni tiklash, O'zbekistonda turli tarixiy davrlarda amalga oshirilgan qatag'on siyosatining mohiyatini ilmiy asosda ochib berish, arxiv hujjatlari hamda davriy matbuot manbalarini ilmiy muomalaga kiritish va ularni muzeylashtirish orqali jamoatchilikka yetkazish kabi vazifalarning amaliy zaruriyatini ham belgilab bermoqda.

Qatag'on siyosatining mavjud manbalarini tahlil qilish, uning oqibatlarini o'rganish, ularning muzeyshunoslikdagi aksini tadqiq etish bo'yicha xorijdagi ilmiy tadqiqot markazlari va bir qator ilmiy-tadqiqot institutlarida mustamlakachilik siyosati hamda sovet tuzumi repressiyalariga oid keng ko'lami tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi muhim xorijiy ilmiy markazlar bilan xalqaro hamkorlikning olib borilishi arxiv manbalarini o'rganish, muzeylar tashkil etish va tarixiy haqiqatni jahon hamjamiyatiga yetkazishda dolzarb hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda demokratik jamiyat va huquqiy davlat qurish jarayonida milliy tarixning eng murakkab va ziddiyatli davrlarini chuqur o'rganish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Xususan, sovet davrida yuz bergan voqealarga xolis baho berish, ulardan zarur xulosa va saboqlar chiqarish, xalqni, ayniqsa, yosh avlodni asl tarix bilan tanishtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zero, "Hozirgi murakkab va tahlikali davrda mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, tariximizning noma'lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtai nazardan chuqur o'rganish, inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ularni bugungi tinch, erkin va ozod hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalash lozim"¹. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning mustamlaka va sovet davri tarixi, xususan, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asrdagi siyosiy qatag'onlar, uning fojiali oqibatlarini ilmiy asosda tadqiq etish, qatag'on qurbonlarini nomma-nom aniqlash hamda ularning qismatini o'rganish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmon, 2021-yil 19-iyundagi PQ-5150-son "O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 30-maydagi PQ-201-son "Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida", 2024-yil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-270-son qarori. <https://www.lex.uz/docs/7027939>

19-iyuldagi PQ-270-son “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”, 2024-yil 27-dekabrda PQ-462-son “Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-noyabrda 691-son “2025–2026-yillarda mamlakatimizda qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini targ‘ib etish ishlarini yanada jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlar va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar belgilagan vazifalarni bajarishda ushbu tadqiqot muayyan darajada asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². O‘zbekistonda XIX asr ikkinchi yarmi va XX asrda amalga oshirilgan qatag‘on siyosati tarixi hamda uning oqibatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida olib borilmoqda. Xususan, Potsdam universiteti – Sovet tadqiqotlari instituti (Germaniya), Huver instituti (Vashington, AQSh), London Iqtisodiyot maktabi (LSE) – Xalqaro tarix departamenti (Buyuk Britaniya), Pileski instituti (Polsha), Yevropa, Rossiya va Yevroosiyo tadqiqotlari instituti (Karlton, Ottava, Kanada), “Memorial” jamiyati (Moskva, Rossiya), GULAG tarixi davlat muzeyi (Moskva, Rossiya), Tokio universitetining Yaqin Sharq tadqiqotlari markazi (Tokyo, Yaponiya), Istanbul universiteti va Marmara universiteti (Istanbul, Turkiya), Egey universiteti (Izmir, Turkiya), “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi hamda Aljir memorial kompleksi (Qozog‘iston), Esimde ilmiy jamiyati (Bishkek, Qirg‘iziston) shular jumlasidandir.

Xorijda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati masalasiga doir quyidagi ilmiy natijalar olingan: sovet hokimiyatining Markaziy Osiyodagi qatag‘on siyosati va uning yerlik aholiga ta‘sirini o‘rgangan (Potsdam universiteti, Germaniya); siyosiy qatag‘onlar, ularning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari, shuningdek, mazkur jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq ocharchilik va uning qurbonlari aniqlangan (Huver instituti, AQSh); mustamlakachilik va sovet tuzumi qatag‘onlari, jumladan, ommaviy hibsga olishlar, deportatsiyalar va inson huquqlarining buzilishlari manbalar asosida aniqlangan (London iqtisodiyot maktabi (LSE) – Xalqaro tarix departamenti, Buyuk Britaniya); XX asr siyosiy tarixining eng muhim masalalari

² Dissertatsiya bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.uni-potsdam.de/en/university-of-potsdam/>; <https://www.hoover.org/>; <https://instytutpileckiego.pl/en/instytut/>; <https://carleton.ca/eurus/>; <https://www.memo.ru/en-us/>; <https://www.culture.ru/institutes/1437/gosudarstvennyi-muzei-istorii-gulaga/>; <https://park.itc.u-山内昌之センター長のオマーン国訪問tokyo.ac.jp/UTCMES/2011/09/19/> %E5%B1%B1%E5%86%85%E6%98%8C%E4%B9%8B%E3%82%BB%E3%83%B3%E3%82%BF%E3%83%BC%E9%95%B7%E3%81%AE%E3%82%AA%E3%83%9E%E3%83%BC%E3%83%B3%E5%9B%BD%E8%A8%AA%E5%95%8F/?lang=en; https://sosyalbilimler.istanbul.edu.tr/tr/_; <https://ru.esimde.org/>; <https://turkiyat.marmara.edu.tr/>; <https://tdae.ge.edu.tr/> va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

va jarayonlarini tahlil qilish, birinchi navbatda natsizm va sovet totalitar rejimlari hamda ularning global oqibatlarini o'rganishga qaratilgan xalqaro va tarmoqlararo tadqiqotlar olib borgan (Pilecki instituti, Polsha); 1892-yilgi Toshkentdagi vabo epidemiyasi mustamlakachilik siyosatining mohiyatini ochib berganligi va hukumatning aholini tarqoqlashtirishga qaratilgan harakatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan (Yevropa, Rossiya va Yevroosiyo tadqiqotlari instituti, Kanada); sovet davri qatag'onlari, jazolash organlari, GULAG tizimi, mehnat lagerlari va majburiy ko'chirish siyosatining tarixi, qatag'on qurbonlarini rehabilitatsiya qilish jarayonlari arxiv hujjatlari orqali yoritilgan ("Memorial" – xalqaro tarixiy-ma'rifiy, xayriya va inson huquqlarini himoya qiluvchi jamiyat, Rossiya), Ommaviy qatag'onlar va sovet lagerlari tizimi, GULAG qurbonlari va ularning xotirasini saqlash, inson hayoti, qadr-qimmatini anglashga yordam beruvchi ko'rgazmalar, shuningdek, 1918–1956-yillardagi repressiv tizimning shakllanish bosqichlari va uning inson taqdirlariga ta'sirini aks ettiruvchi doimiy hamda vaqtinchalik ekspozitsiyalar GULAG tarixi davlat muzeyi (Rossiya) tomonidan tashkil etilgan; Turkiston jadidlari hayoti, faoliyati, qatag'oni va ularning ilmiy-adabiy merosini ilmiy asosda tahlil qilib yoritgan (Tokio universitetining Yaqin Sharq tadqiqotlari markazi, Yaponiya), Turkistonda Rossiya hukmronligi, Turkistondagi islohotchi harakatlarning millatchilik va mustaqillik g'oyasi atrofida umumiy ma'noda jadidchilik, milliy darajada esa "Yosh buxoroliklar" harakatiga aylanishiga ta'sir qilgan omillar aniqlangan. Shuningdek, Turkiyada yashagan turkistonlik (Turkiya hukumatining 1952-yilgi qarorida 1853 nafar) muhojirlar hayoti, faoliyati va ular tomonidan nashr qilingan gazeta hamda majmualarda Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borish, Turkistondagi vaziyatni butun dunyoga yetkazish, bo'linib ketgan turkiy dunyo birligini ta'minlash g'oyasini singdirish, har bir turkiy xalqlar o'z tarixini yaxshi bilishi va milliy o'zligini yo'qotmasligini targ'ib etish bo'lganligi asoslangan (Istanbul universiteti – Ijtimoiy fanlar instituti, Marmara universiteti – Turkiy tadqiqotlar instituti, Egey universiteti – Turk dunyosi tadqiqotlari instituti, Turkiya), Qatag'on qurbonlari, ayniqsa ayollar va ularning farzandlari haqidagi muzey ekspozitsiyalari, Aljir lageridagi mahbuslarning taqdiri, jazo muddatlari va turmush sharoitlarini aks ettiruvchi arxiv materiallari, shaxsiy yozuvlar Stalin davridagi siyosiy repressiyalarning murakkab hamda noyob jihatlarini ochib bergan ("Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi va Aljir memorial kompleksi, Qozog'iston), XX – XXI asrlarda Qirg'iziston va Markaziy Osiyo tarixini tahlil qilish, tarixdagi "oq dog"larni aniqlash va haqiqiy tarixiy haqiqatni tiklash, shu jumladan, Rossiya imperiyasi va sovet hukumati ommaviy qatag'onlari qurbonlarining xotirasini tiklash va saqlab qolish masalalari ilmiy asosda yoritilgan (Esimde jamiyati, Qirg'iziston).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asrda amalga oshirilgan qatag'onlar tarixiga doir ilmiy tadqiqotlarni davriy jihatdan quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin: 1. Rossiya mustamlakachiligi hukmronligi davrida chop etilgan maqola va adabiyotlar; 2. Qatag'on siyosati tarixiga bag'ishlangan sovet davri adabiyotlari; 3. Mustaqillik davri tadqiqotlari; 4. Xorijiy adabiyotlar.

Birinchi guruh, Rossiya imperiyasi davrida chop etilgan adabiyotlar sirasiga birinchi navbatda hukumat tomonidan chiqarilgan rasmiy, harbiy doiralari bayon

etgan esdalik va adabiyotlarni kiritish mumkin. XIX asr ikkinchi yarmida o'lkadagi ijtimoiy – iqtisodiy hayot, Buxoro, Xiva va Rossiya munosabatlari, xonliklarning zabt etilishi, o'lkani boshqarish va mustamlaka zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlari kabi turli masalalar yuzasidan M.N.Galkin, A.S.Tatarinov, V.V.Krestovskiy, L.F.Kostenko, M.A.Terentev, A.Maksheev, K.K.Abaza, S.V.Jukovskiy, D.N.Logofet, N.Pavlov va boshqalarning asarlarini aytib o'tish lozim³. Ushbu adabiyotlarning barchasi Turkistonda olib borgan mustamlaka tuzumining agressiv va shovinistik siyosatini har tomonlama oqlab ko'rsatishga, uning Rossiya imperiyasi manfaatlarini uchun naqadar zaruriyatli ekanligiga, bu kampaniya birinchi navbatda mustamlaka xalqlarga madaniy jihatdan katta ahamiyat kasb etishiga urg'u berishgan.

Voqelikni chuqur yoki umuman tahlil qilmaslik, bir tomonlama Rossiya imperiyasi hukumati manfaatlarini nuqtai-nazaridan turib yondoshuv, yerlik xalqlar ozodlik kurashlari, manfaatlarini hisobga olmaslik, mustamlaka hukumatning zo'rvonlik siyosatini xastpo'shlab ko'rsatish Rossiya imperiyasi mualliflari uchun xos xususiyat bo'lgan. Bundan tashqari, o'sha davr mualliflarining yozish uslubi bayon etish uslubi bo'lib, voqelik, faktlarni sanab o'tish bilan cheklanganlar.

Ikkinchi guruhni sovet davrida nashr qilingan adabiyotlar, risola va ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi⁴. Ta'kidlash joizki, sovet hokimiyati yillarida XIX asr ikkinchi yarmidagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy tarixiga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, lekin yozilgan maqola, risola va ilmiy adabiyotlarda partiyaviy – marksistik nuqtai nazardan bir tomonlama yondoshuv, chor Rossiya imperiyasi hukmronligining “progressiv” ahamiyatiga asosiy urg'u berilgan. Ayniqsa, mustamlaka tuzumga qarshi xalq qo'zg'olonlari, milliy ozodlik kurashlari masalasi e'tibordan chetda qolgan. Sovet tarixshunosligida mazkur masala jiddiy tarzda ko'rib chiqilmagan, umumiy ravishda “reaksion feodal isyoni”, “mutassiblar harakati” va boshqa tamg'alar bilan izohlangan. Sovet davri qatag'onlariga oid asarlar va tadqiqotlar ham asosan mafkuraviy bosim hamda mavjud tuzum manfaatlarini asosida yaratilgan⁵.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng milliy tarixni haqqoniy va xolisona o'rganish, uni ilmiy asosda tahlil etishga katta e'tibor qaratildi. Ayniqsa,

³ Татаринов А.С. Семимесячный план в Бухарии. – СПб, 1867; Галкин М.Н. Этнографические и исторические материалы по Средней Азии и Оренбургскому краю. – СПб, 1868; Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 году. – СПб. 1871; Терентьев М.А. Россия и Англия в Средней Азии. – СПб, 1875; Крестовский В.В. В гостях у эмира бухарского. – СПб, 1887; Макшеев А.И. Исторический обзор Туркестана и наступательного движения в него русских. – СПб, 1890; Абаза К.К. Завоевание Туркестана. – СПб, 1902; Логофет Д.Н. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб, 1909; Его же. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. 1. – СПб, 1911; Павлов Н. История Туркестана (и связи с историческим очерком сопредельных стран, Персии, Афганистана, Белуджистана, Индии, Вост. Туркестана). – Т. 1911; Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – СПб, 1915.

⁴ Федоров Е. Очерки национально-освободительного движения в Средней Азии. – Т. 1925. – 86 с.; Рыскулов. Восстание туземцев Средней Азии в 1916 году. В двух частях. – Кзыл-Орда. 1927. – 134 с.; Alikseyenkof P. 1916-nci yilda bo'lg'on Xiva qo'zg'oloni. – Т. 1931. – 76 б.

⁵ Соловейчик Л. Басмачества в Бухаре. – Москва. 1923. – 36 с.; Алексеенков П. Крестьянское восстание в Фаргане. – Т. 1927. – 118 с.; Каримов А. Қосимовчилик ва миллий аксилинкилобий харакат. – Т. 1930; Литвиненко П., Раскин Г. Колхозное движение и классовая борьба в кишлаке Узбекистана. – Т. 1931; Зинина Т.Г., Ржевский Г.К. Справочник «Хлопководство Узбекистана за 50 лет». Т. 1967. – 455 с.; Иваницкий Н.А. Классовая борьба в деревне и ликвидация кулачества как класс (1929–1932). – М. 1972; Юсупов Э.Ю. Очерки истории Коммунистической партии Узбекистана. – Т. 1974. – 767 с.

mustamlakachilik davridagi voqealarni tiklash, xalqning ozodlik va istiqloq yoʻlidagi kurashini oʻrganish ustuvor yoʻnalishlardan biriga aylandi. Mustaqillik yillarida yurt ozodligi, mustaqilligi, xususan, Turkiston oʻlkasidagi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatlariga qarshi xalq qoʻzgʻolonlari, milliy ozodlik harakatlari hamda sovet tuzumi davridagi ommaviy qatagʻonlar tarixi boʻyicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Xususan, H.Ziyoyev, D.Ziyayeva, Z.Choriyev, R.Shamsutdinov, S.Agzamxoʻjayev, J.Ismailova, X.Yunusova kabi taniqli tarixchilarning ishlarida mazkur davrdagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlar tadqiq etilgan⁶.

Mustaqillik yillarida sovet davridagi qatagʻonlar masalasi yuzasidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Turli sohalar vakillari, jumladan, tarixchilar, filologlar, huquqshunoslar, falsafa va boshqa fan namoyandalari tomonidan sovet davridagi siyosiy taʼqiblar, ularning sabablari va oqibatlarini hamda bu zulmning qurbonlariga bagʻishlangan qator ilmiy va publisistik asarlar yaratildi. Ayniqsa, qatagʻonlarga oid adabiyotlarni davrlar kesimida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etib, tadqiqotlar quyidagi asosiy tarixiy bosqichlar doirasida tadqiq etilgan: 1) 1917–1924-yillar davridagi ommaviy qatagʻonlar⁷; 2) 1925–1936-yillardagi siyosiy taʼqiblar⁸; 3) 1937–1939-yillardagi “Katta qirgʻin”⁹; 4) 1940–1950-yillardagi davomli taʼqiblar¹⁰; 5) 1980-yillardagi “Paxta ishi”¹¹ deb yuritilgan

⁶ Бобобеков Ҳ. Пўлатхон кўзғолони. – Т. 1996. – 60 б.; Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти: миллий демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси. – Т. 1996. – 168 б.; Суёнова А. Туркистонда 1916 йилги миллий озодлик кураши (Сирдарё вилояти мисолида). Тарих фан. ном. дисс... – Т. 1997. – 131 б.; Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш (XVIII аср – XX аср бошлари). Т. 1998; Юнусова Х. Тошкентда 1892 йилги халқ кўзғолони. – Сариеғоч ш. 1998. – 95 б.; Чориев З. Туркистон мардикорлари: сафарбарлик ва унинг оқибатлари (1916 – 1917 йиллар). – Т. 1999. – 160 б.; Зияева Д.Х. Национально-освободительное движение в Туркестане в историографии XX века (проблемы изучения истории восстания 1916 года и движения «истиклолчилик» 1918–1924 гг.). – Т. 1999. – 61 с.; Исмоилова Ж. Фарғона водийсида миллий озодлик курашлари (1916 йил кўзғолони мисолида). – Т. 2003. – 336 б.; Одилов А.А. Бухоро амирлигида миллий озодлик ҳаракатлари тарихи (Абдумалик тўра бошчилигидаги халқ озодлик ҳаракати мисолида). Тарих фан. ном. дисс... – Т. 2003. – 212 б.; Мингнарлов А. Туркистондаги ижтимоий-сиёсий жараёнларнинг миллий матбуотда ёритилиши (1917–1918 йиллар). – Т. 2013. 156 б.

⁷ Зияева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. – Т. 2000; Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустикаллиги учун курашларнинг тарихи (миллоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Т. 2001. – 448 б.; Алимова Д.А., Голованов А.А. Ўзбекистон 1917 – 1990 годы: противоборства идей и идеологи. – Т. 2002. – С. 54; Шамсуддинов Р. Қишлоқ фожиаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун. – Т. 2003; Қ.Ражабов Туркистон минтақасида совет режимига қарши қуролли қаршилик ҳаракати (1918–1924). Тарих фан. док. дисс... – Т. 2004; Hasanov В. XX asr boshlarida Turkiston va milliy ziyolilar. – Т. 2024. – 256 б.

⁸ Ҳошимов С. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистондаги қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (1917–1936 йиллар). – Т. 2018. – 272 б.; Ҳасанов Б., Ирзаев Б. Миллатимиз фидойилари. – Т. 2022. – 504 б.

⁹ Боқий Н. Қатлнома (Ҳужжатли қисса). – Т. 1992. – 151 б.; Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. – Т. 2006. – 256 б.; Ҳасанов Б. “Катта қирғин”нинг ҳуқуқий ҳужжатлар базаси. – Т. 2014. – 54 б.; Абдуллаев М. Ўзбекистонда советларнинг “кулоқ” қилиш сиёсати ва унинг фожиали оқибатлари (1925–1945). Тарих фан. ном. дисс... – Т. 2002; Ирзаев Б. “Катта қирғин”нинг келиб чиқиши арафасидаги сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий шароит. – Т. 2014. – 56 б.; Каримов Н. 1937–1938 йиллардаги “Катта қирғин”нинг фожеали оқибатлари. – Т. 2015; Ҳасанов Б. Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи. Йўлқўрсаткич. – Т. 2022; Йўлдошев А. Чет элларда ўқиган туркистонлик ёшлар (19-юзйиллик сўнги – 20-юзйиллик биринчи чораги) [Матн]. – Т. 2024. – 272 б.

¹⁰ Ишанходжаева З. Репрессивная политика советской власти и её воздействие на культурную жизнь Узбекистана (1925–1950 гг.). Автореф. дисс. док. ист. наук. – Т. 2012. – 50 б.; Сирожиддин Аҳмад. Қизил мустамлака: эълон қилинмаган уруш (1929–1950). – Т. 2022. – 640 б.; Абдуллаев М. Ўрта Осиёдаги маҳсус посёлкалар тизими ва сургун қилинган кулоқлар тақдири (1930–1954 йиллар). – Т. 2018. – 352 б.

¹¹ Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. – Т. 2022. – 512 б.; Юнусова Х. Ўзбекистонда совет давлатининг миллий сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т. 2005. – 114 б. Ўша муаллиф. Ўзбекистонда пахта иши қатағонлари ва унинг оқибатлари // “Ўзбекистонда совет давлатининг қатағон сиёсати: келиб чиқиш сабаблари ва фожиали

soxta jinoyat ishlari bilan bog‘liq qatag‘onlar. Bu borada “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi va Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tomonidan amalga oshirilayotgan izchil faoliyat, xususan, siyosiy qatag‘on qurbonlari hayoti va merosini yoritish, arxiv manbalarini tadqiq etish hamda jamoatchilikka yetkazish ishlari alohida e’tirofqa loyiqdir¹².

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qatag‘on siyosati masalasi manbashunoslik va muzeyshunoslik nuqtai nazaridan hali to‘liq va kompleks tarzda o‘rganilmagan. Ayni paytda, muzeylar faoliyati va muzeyshunoslikka¹³ oid mavjud tadqiqotlarda ushbu mavzuga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Shuningdek, qatag‘on qurbonlariga bag‘ishlangan monografiya va asarlar son jihatidan ortib borayotgan bo‘lsa-da, ularni ilmiy jihatdan tizimli, tahliliy va chuqur o‘rganish zarurati hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda.

To‘rtinchi guruhga xorijiy tarixchilar tomonidan yaratilgan asarlar kiradi, ular Turkistonning Rossiya imperiyasi va Sovet Ittifoqi davridagi mustamlakachilik siyosati hamda qatag‘onlarga oid tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, E.Allworth, D.Northrop A.Andijon, I.Dilek asarlarida¹⁴ Turkistonda chor hukumatining o‘rnatilishi, unga qarshi xalq noroziliklari, Turkiston Muxtoriyati, jadidchilik harakati va uning bostirilishini tahlil qilingan bo‘lsa, A.Applebaum, T.Martin, R.Conquest, V.Zemskov, R.M.Kuchcholla singari olimlar o‘z tadqiqotlarida¹⁵ sovet repressiyalari va mustamlaka siyosati, 1930-yillardagi Stalin qatag‘onlari, “Paxta ishi”, GULAG hamda sovet jazolash tizimini yoritganlar.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda Rossiya imperiyasi hamda sovet tuzumi davrida amalga oshirilgan qatag‘on siyosatining tarixiy manbalari va muzeyshunoslikdagi aks etish holatini o‘rganish, shu jarayonni yorituvchi

окибатлари” илмий мақолалар тўплами. – Т. 2012. – 191 б.; Равшанов П. Қашқадарё: истиқлол арафасида. 1986–1989 йиллар. – Т. 2003; Ражабов Қ. Ўзбекистон ССРда совет режимининг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (1917–1991 й.). – Т. 2022. – 400 б.; Raxmatova D.J. XX asr 50 – 80-yillarida Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilgan paxta yakkahokimligi siyosati va uning oqibatlarini. – Т. 2023. – 204 b.

¹² Тарихнинг номаълум саҳифалари. К. 1/тўпловчи ва масъул муҳаррир Каримов Н. – Т. 2009. – 224 б.; Ўша асар /масъул муҳаррирлар: Ҳасанов Б., Каримов Н. – Т. 2012. – 280 б.; Ўша асар 4/масъул муҳаррирлар: Ҳасанов Б., Н.Каримов. – Т. 2013. – 280 б.; Ўша асар. V китоб. / Масъул муҳаррирлар: Ҳасанов Б. ва бошқ. – Т. 2016. – 152 б.; Ўша асар. VI китоб. / Масъул муҳаррирлар: Ҳасанов Б. ва бошқ. – Т. 2017. – 184 б.; Ўша асар. VII китоб. / Тузувчи: Ҳасанов Б. – Т. 2018. – 204 б.; Ўша асар. 11-китоб. Масъул муҳаррир Ҳасанов Б. – Т. 2024. – 384 б.

¹³ Бекмуродов М., Рашидов М. Музейшunoslik. – Т. 2006. – 102 б.; Хақимов А. Файзиёва В. Ўзбекистон давлат санъат музейи ноёб хазинасидан. – Т. 2014. – 236 б.; Курбонова Д.А. Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга оид коллекцияларнинг шаклланиши ва уларни комплекшлаш тамойиллари. Тарих фан. док. дисс. – Т. 2020. – 230 б.; Замонавий музейшunoslikда моддий ва номоддий меросни сақлаш масалалари. Жамоавий монография (масъул муҳаррир: Исмаилова Ж.Х.). [Матн] / – Т. 2020. – 280 б.; Курязова Д.Т. Ўзбекистон моддий маданият меросини ўрганиш, сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари. Тарих фан. док. дисс... – Т. 2021. – 290 б.; Ismailov A. O‘zbekistonning intellektual rivoji tarixi va fan muzeylarini shakllantirish tendensiyalari (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi misolida). Tarix fan. dok. diss... avtoref. – Т. 2023. – 70 б.; Muxamedova M. O‘zbekistonda muzey turizmining rivojlanishi (XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari). Tarix fan. dok. dis... avtoref. – Т. 2025. – 74 б.

¹⁴ Allworth E. Central Asia: A Century Of Russian Rule. New York. 1967. 552 p.; Northrop D. Veiled Empire: Gender and Power in Stalinist Central Asia. USA. 2003. 416 p.; Andican A. Cedidizmden Bağımsızlığa Hürriyet Türkiistan mücadelesi. İstanbul. 2020. - 704 s.; Dilek İ. Türk dünyasında repressiya. – Ankara. 2023. – 733 s.

¹⁵ Applebaum A. Gulag: A History. USA. 2004. 736 p.; Martin T. The Affirmative Action Empire: Nations and Nationalism in the Soviet Union, 1923–1939. USA. 2001. 528 p.; Conquest R. Stalin: Breaker of Nations. London. 1992. – 384 p.; Conquest R. The great terror : Stalin’s purge of the thirties. New York. 1968. 633 p.; Земсков В.Н. Спецпоселенцы в СССР (1930–1960). – М. 2005. – 304 [2] с.; Cucciolla R.M. The Crisis of Soviet Power in Central Asia: The ‘Uzbek cotton affair’ (1975–1991). – Lucca, Italy, 2017. – P. 712.

manbalarni ilmiy tahlil qilish asosida qatag'on siyosati va uning oqibatlari masalasini tarixiy jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Rossiya imperiyasi hukumatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot sohalarida yuritgan mustamlakachilik siyosati mohiyatini hamda aholi boshidan kechirgan zulmni tarixiy manbalar asosida yoritish;

Mustamlakachilik zulmiga qarshi yuzaga kelgan xalq harakatlari va qo'zg'olonlarning kelib chiqish omillari, ularni harakatlantirgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni birlamchi manbalar orqali aniqlab berish;

Milliy-ozodlik harakatlari, qo'zg'olonlar yetakchilari va qatnashchilarining faoliyatini, ularning jazolanishi, siyosiy ta'qib qurboniga aylanish jarayonlarini o'rganish va ilmiy asosda tahlil qilish;

Qo'zg'olonlarning mohiyati, maqsadi va yo'nalishiga baho berib, ularning tarixiy ahamiyatini kompleks yoritish;

Sovet davrida amalga oshirilgan qatag'on tizimining asosiy bosqichlarini, uning huquqiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatlarini turli tarixiy manbalar asosida chuqur tadqiq etish;

Rossiya imperiyasi va sovet mustamlakachilik siyosatining yerlik aholi turmush tarziga, erkinlik va huquqlariga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qilish;

Qatag'on siyosati bilan bog'liq jarayonlarni arxiv hujjatlari, statistika materiallari, davriy nashrlar, ilmiy tadqiqotlar, jabrlanganlarning shaxsiy xotiralari hamda muzey ekspozitsiyalari asosida har tomonlama o'rganib, ularni yaxlit ilmiy muomalaga kiritish;

Qatag'on qurbonlarining hayoti, faoliyati va fojiali taqdirini o'rganish, milliy yetakchilar va oddiy insonlarning repressiyaga uchrash omillari va oqibatlarini tahlil qilish, tarixiy adolatni tiklashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslarni ishlab chiqish;

Mustamlaka va sovet davri qatag'on siyosatining milliy madaniyat, adabiyot, san'at va ilm-fan taraqqiyotiga ko'rsatgan salbiy ta'siri, intellektual va milliy ongga zarar yetkazgan jihatlarini o'rganish hamda ilmiy xulosalar berish;

Qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, ularning nomlarini tiklash, muzeylar, ilmiy markazlar va xotira maydonlari faoliyatini takomillashtirishga doir ilmiy-tashkiliy tavsiyalar ishlab chiqish;

Muzeyshunoslik nuqtai nazaridan qatag'on siyosati bilan bog'liq yodgorliklar, ko'rgazmalar va tadqiqot yo'nalishlarini rivojlantirish, tarixiy obidalarni muhofaza qilish va keng jamoatchilikka yetkazish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

Qatag'onlar tarixini ilmiy va ommaviy nashrlar, konferensiyalar, seminarlar va ko'rgazmalar orqali keng auditoriyaga yetkazish, shuningdek, ta'lim jarayonida undan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda yuz bergan qatag'on siyosati jarayoni, uning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy hayotga ko'rsatgan ta'siri, shuningdek, ushbu davrga oid arxiv hujjatlari, muzey ekspozitsiyalari va turli tarixiy manbalar majmui olinadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistonda Rossiya imperiyasi hamda sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan qatag'on siyosati tarixining manbalarini

o'rganish, ularni tahlil qilish va ilmiy muomalaga kiritish, shuningdek, arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari, ilmiy va ommabop adabiyotlar, xotiralar hamda muzey eksponatlari asosida qatag'on jarayonlarini tahlil qilish va qurbonlar taqdirini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tarixiy jarayonlarni ochib berishga xizmat qiluvchi tarixiy-genetik va retrospektiv yondashuvlar, sinxron hamda diaxron tahlil, tarixiy taqqoslash va tipologik metodlar, shuningdek, voqealarni tizimli va dinamik tarzda o'rganishga imkon beruvchi ilmiy usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1865–1980-yillar davomida, xususan, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy ozodlik harakati ishtirokchilari (4099), “sovetlarga qarshi unsurlar” sifatida ta'qib etilganlar (742), siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi “inqilobiy o'zgarishlar”ga qarshilik ko'rsatganlar (15218), “katta qirg'in” davrida jazoga tortilganlar (13108), tazyiq va ta'qiblar bosqichida jabrlanganlar (1068) hamda “Paxta ishi” doirasida qatag'on qilinganlar (3553) sonining aniqlanishi va manbalar asosida tavsiflanishi natijasida ularni muzey-shunoslik nuqtai nazaridan ilk marta tizimli-manzilli dinamikasi ko'rsatib berilgan;

Oliy sud harbiy kollegiyasi hukmi uchun oldindan tayyorlangan Ichki ishlar xalq komissarligining “1” (otuv) va “2” (qamoq) belgili “qatl ro'yxatlari” bo'yicha siyosiy-ijtimoiy islohotlarda faol ishtirok etgan davlat va jamoat arboblari, ta'lim rivoji yo'lida zarur mutaxassislar tayyorlab, qoloqlikka qarshi kurashgan pedagoglar, gazeta hamda jurnallar orqali ma'rifat tarqatgan jurnalistlar, shuningdek, huquqshunos, me'mor, kino rejissyor, shifokor, kimyogar olim, elektr muhandis va boshqa soha vakillari bo'lgan 60 dan ortiq milliy ziyolilar qatag'on qilinganligi birlamchi manbalar asosida aniqlangan;

Sovet hokimiyatining amalga oshirgan qatag'on siyosati oqibatida 1930–1950-yillar boshida O'zbekiston hududida 83500 kishi sud hukmi, 18682 shaxs esa sudsiz (6038 tasi otilgan) jazoga tortilgani, umumiy hisobda 102182 fuqaro repressiyaga uchraganligi, 1955–1990-yillari qatag'on siyosatiga nisbatan rasmiy munosabatning o'zgarishi tufayli 22968 kishining rehabilitatsiya qilinganligi, 2020–2024-yillari arxivlardagi maxfiy hujjatlarning ochiqlanishi natijasida mustabid tuzum davrida siyosiy ta'qibga uchragan yana 1200 nafar shaxsning oqlanganligi ilmiy asosda ochib berilgan;

Respublika muzeylarida mustamlaka tuzumiga qarshi harakatlar asosan “Vabo isyoni”, “Dukchi eshon” harakati hamda “1916-yil qo'zg'olonlari” doirasida aks ettirilganligi, xorijiy manbalarda esa Turkiston hududida 5000 ga yaqin isyonlar yuz berganligi qayd etilgani natijasida Markaziy Osiyo xalqlarining milliy ozodlik va mustaqillik yo'lida birgalikda olib borgan kurashlarining tarixiy ahamiyati, yuzaga kelish sabablari, ko'lam va oqibatlarini ilmiy-nazariy jihatdan qayta baholash orqali muzey ekspozitsiyalarini yangilash zarurati, tashrifchilar, ayniqsa yoshlarga qo'zg'olonlar tarixini zamonaviy texnologiyalar, jumladan, VR (virtual reallik), gologramma, 3D modellashtirish, avatarlar, interaktiv kitoblar, intellektual xaritalar va immersiv eksponatlar asosida taqdim etishning dolzarbligi asoslangan;

Mustamlaka tuzumiga qarshi g'oyaviy-siyosiy kurashning xorijda ham izchil davom etgani natijasida turkistonlik muhojirlar tomonidan Turkiyada “Yangi

Turkiston”, “Turk eli”, Fransiyada “Yosh Turkiston”, Germaniyada “Milliy Turkiston”, “Milliy adabiyot”, Misrda “Turkiston sadosi”, Nyu-Yorkda “Turkiston” kabi 30 dan ortiq gazeta va jurnallar nashr etilganligi aniqlanib, mazkur davriy matbuot qatag‘onlarni fosh etish bilan birga Turkiston madaniyati va adabiyotining yirik namoyondalari hamda ularning faoliyatini xalqaro miqyosda targ‘ib etishga xizmat qilganligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qatag‘on siyosati tarixi bo‘yicha yangi arxiv manbalar, statistik ma‘lumotlar, maxfiy hujjatlar, shuningdek, xorijiy va mahalliy nashrlarda e‘lon qilingan ilmiy ishlar, guvohlar xotiralari tahlil qilindi va tizimli ravishda o‘rganilib, ular asosida Rossiya imperiyasi va sovet tuzumi qatag‘on siyosatining bosqichlari, uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari, ommaviy qatag‘onlarning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan;

Respublika va xorijdagi (*Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va boshqa mamlakatlar*) arxivlar, muzeylar hamda kutubxonalarda saqlanayotgan qatag‘on siyosatiga oid manbalar aniqlanib, manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan, ular asosida tarixiy manbalar katalogi, qatag‘on qurbonlariga oid ma‘lumotlar bazasi shakllangan, ommaviy qatag‘onlar bo‘yicha bibliografiyalar tuzilgan hamda ilmiy-ommabop maqolalar, risola va monografiyalar chop qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada tarix fanida qabul qilingan ilmiy tadqiqot metodlari va yangi yondashuvlardan foydalanganligi, milliy hamda xorij arxiv hujjatlari, davriy matbuot nashrlari va ilmiy adabiyotlar asosida ishlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga tatbiq qilinganligi, shuningdek, olingan ilmiy natijalar vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qatag‘on siyosati tarixi bo‘yicha ilgari o‘rganilmagan yoki cheklangan foydalanishdagi arxiv hujjatlarining ilmiy muomalaga kiritilishi, shuningdek, O‘zbekistonda amalga oshirilgan qatag‘on siyosati bosqichlari, uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari hamda ommaviy qatag‘onlar tarixiga oid manbalarning tizimli ravishda o‘rganilib, tarixshunoslik, manbashunoslik va muzeyshunoslik nuqtai nazaridan baholanishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, qatag‘on qurbonlariga oid bibliografik ro‘yxatlar va ma‘lumotlar bazasining yaratilishi kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari amaliy jihatdan qatag‘on siyosati tarixini chuqur va xolis o‘rganish, tarixiy bilimlarni boyitish hamda ularni ta‘lim jarayoniga samarali integratsiya qilish imkonini beradi. Bu natijalar oliy ta‘lim muassasalarining tarix, huquqshunoslik va siyosatshunoslik yo‘nalishlari uchun darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish, qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, shuningdek, muzeylar va ilmiy markazlar faoliyatini takomillashtirishga zamin yaratadi. Bundan tashqari, ommaviy qatag‘onlar tarixiga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop asarlarni nashr etish, qatag‘on qurbonlarining hayoti va fojialarini yorituvchi ko‘rgazmalar, ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlarni tashkil etish bo‘yicha davlat dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qatag'on siyosati tarixi manbashunosligi hamda muzeyshunosligiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

Davriy matbuot (*"Darxon"*, *"Dehqon"*, *"Farg'ona sahifasi"*, *"Farg'ona"*, *"Inqilob quyoshi"*, *"Ishchi"*, *"Qambag'al dehqon"*, *"Osiyo"*, *"Qizil bayroq"*, *"Qizil matbaachilar"*, *"Qizil O'zbekiston"*, *"Qizil yulduz"*, *"Sharq haqiqati"*, *"Sho'roi islom"*, *"Turk eli"*, *"Turkiston"*, *"Uyg'onish"*, *"Yangi Farg'ona"*, *"Yangi yo'l"*, *"Zarafshon"* gazetalari, *"Alanga"*, *"Bitsin savodsizliq"*, *"Bolalar dunyosi"*, *"Bolalar yo'ldoshi"*, *"Ish maktabi"*, *"Kolxozlarda hisob va moliya ishlari"*, *"Maorif va o'qutg'uchi"*, *"Mashrab"*, *"Matbaachilar"*, *"Meg'nat haftaligi"*, *"Mushtum"*, *"Nashri maorif"*, *"O'zbekiston adabiyoti va san'ati"*, *"O'zbekiston sho'ro adabiyoti"*, *"Qishloq xo'jaligi turmushi"*, *"Qurrulish"*, *"Sotsialistik fan va turmush"*, *"Sovet adabiyoti"*, *"Yangi qishloq"*, *"Yangi yo'l"*, *"Yosh bolshevik"* va *"Yosh kuch"* jurnallari)dagi xabar va maqolalarda qatag'on qurbonlarning ism-shariflari qayd etilgan ro'yxatlar keltirilganligi, arxiv hujjatlarida esa qatag'on qilinganlarning sudsiz surgun qilinganligi yoki otib tashlangani, oilalarining parokanda bo'lgani, mol-mulklarining tortib olingani aks etgan jarayonlar mohiyati mafkuralashgan sovet hukumatida doimo yashirin saqlanib, tarixiy voqelikni aks ettiruvchi barcha manbalar maxfiylashtirilganligi kabi ilmiy xulosalardan № FZ 202007287 raqamli "O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi manbalari (eng qadimgi davrlardan 1991 yilgacha) elektron "aqli kutubxona" platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2025-yil 24-apreldagi 3/1255-1025-son Ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning tadbiq etilishi O'zbekiston tarixini davriy matbuot va arxiv hujjatlari orqali tahlil qilish, mustamlaka-sovet mafkurasi haqida chuqurroq tasavvur shakllantirish hamda ulardan muzey ekspozitsiyalarini takomillashtirishda samarali foydalanishga xizmat qiladi;

Siyosiy qatag'on qurbonlari (*Abdulhamid Cho'lpon*, *Abdurahmon G'oyibiy*, *Abdulah Hay Tojiyev*, *Abduvahob Ibodiy*, *Abduvohid Abdurauf qori o'g'li*, *Abduvosiq Muhammedov*, *Akrom Usmonov*, *A'zam Ayubov*, *Bekjon Rahmonov*, *Boboovxon Salimov*, *Dadamirza qori Shayxov*, *G'ulom Zafariy*, *Ibrohim Davron*, *Karim Abdullaev*, *Lutfulla Olimiy*, *Nazir Sholikorov*, *Nazir To'raqulov*, *Nizomiddinxo'ja Asomiddinxo'ja o'g'li*, *Otajon Hoshim*, *Polvonniyoz hoji Yusupov*, *Salimxon Tillaxonov*, *Sanjar Siddiq*, *Sulaymon Xo'jaev*, *Zahiriddin a'lam Abulqosim*)ning hayoti, faoliyati va fojiali taqdiri aks etgan ko'p jildli "jinoyat ishlari" tuhmat, adolatsizlik va zo'ravonlik bilan to'ldirilgan bo'lib, sahifalari qora va qizil siyoh bilan yozilgan soxta guvohnomalar, barmoq izlari hamda "maxfiy" tamg'alari ostida saqlanayotgan hujjatlar bilan to'ldirilgan bo'lib, ushbu xulosalar AL 03-05 "jadid.uz elektron platformasini yaratish" amaliy loyihasida foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2025-yil 24-apreldagi 3/1255-1025-son Ma'lumotnomasi) ilmiy natijalar tarixiy haqiqatni yoritish, O'zbekiston ilmiy-madaniy merosini saqlash va jadidchilik harakatini chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etib, muzeylar, ilmiy markazlar va ta'lim jarayonida qo'llanilishi orqali keng jamoatchilikka yetkazilishiga xizmat qiladi;

So'nggi yillarda hukumat qarorlari asosida maxfiy hujjatlarning ochiqqlanishi oqibatida qatag'on qurbonlarining oqlanishi, tarixiy tadqiqotlar uchun esa yangi

imkoniyatlar yaratib, muzey ekspozitsiyalarini ilmiy asoslangan va xolis yondashuvga ega bo'lgan birlamchi manbalar hamda tarixiy ashyolar bilan boyitishga, qatag'on siyosatining huquqiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlarini yanada chuqurroq tahlil qilishga hamda shu tadqiqotlar natijalaridan hujjatli va ilmiy-ma'rifiy ko'rsatuvlar ssenariylarini tayyorlashda asos sifatida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 26-martdagi 01-30-184-son Ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning joriylanishi qatag'on davri tarixini ommaga yetkazish va fuqarolarning milliy xotira hamda tarixiy adolatga oid tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi;

130 yil davom etgan Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovet tuzumi yillarida o'zbek xalqi qatag'on siyosatidan jabr va zulm chekkan, "Xalq dushmani", "millatchi", "bosmachi", "aksilinqilobchi", "mushtumzo'r" kabi nohaq ayblar bilan ko'plab insonlar qatag'on etilgani, muzey ekspozitsiyalarida esa yurt ozodligi yo'lida yuz bergan xalq qo'zg'olonlari (*Toshkent mudofaasi, Samarqand qo'zg'oloni, Abdumalik to'ra boshchiligidagi qo'zg'olon, Xiva qo'zg'oloni, Po'latxon qo'zg'oloni, Mamir Mergan o'g'li qo'zg'oloni, Qurbonjon Dodxoh boshchiligidagi qo'zg'olon, Yetimxon qo'zg'oloni, Sirdaryo viloyati Qurama tumanidagi qo'zg'olon, Sho'raxon uchastkasi Biybozor volosti va Chimboy uchastkasi Nukus viloyatidagi qo'zg'olonlar, Darvishxon qo'zg'oloni, Qo'qon qishloq volostidagi qo'zg'olon, O'qchi-Shahrixondagi qo'zg'olon va boshqa kurashlar*) aks ettirilmagan holatlar arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari asosida tahlil qilinib chiqarilgan tegishli ilmiy xulosalardan 14 ta hudud bo'yicha yaratilgan Qatag'on qurbonlari Xotira kitoblarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining 2024-yil 14-iyundagi 175-son Ma'lumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishi muzey ekspozitsiyalarini boyitishga xizmat qiladi;

Turkistonda chop etilgan davriy matbuot nashrlari Rossiya imperiyasi ma'muriyati tomonidan taqiqlangan bo'lsa-da, ular xalqning milliy ongini uyg'otish, erk va hurriyat g'oyalari bilan "qurollantirish" yo'lida muhim rol o'ynaganligi, turkistonlik muhojirlarning (*Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Polsha, Eron, Misr kabi*) xorijiy davlatlardagi gazetalar, majmualar, byulletenlar va xotiralarida milliy ozodlik qo'zg'olonlarining asosiy maqsadi – Turkistonni mustaqil mamlakat deb e'lon qilish ekani ta'kidlanganligi haqidagi ilmiy xulosalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalidagi ko'rsatuvlarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 28-martdagi 01-30-188-son Ma'lumotnomasi). Bu materiallar "Mavzu", "O'zlikka yo'l", "Ochiq dars", "Aslida qanday?" kabi ko'rsatuvlarning ilmiy asoslanganligini oshirishga hamda ularni yanada mukammal qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 17 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 5 ta xorijiy, 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, 1 ta monografiya, Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya

etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, shu jumladan, 5 ta xorijiy jurnallarda ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 246 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyati asoslangan, shuningdek, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bilan uyg'unligi bayon qilingan. Xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar tahlili orqali mavzuga doir muammoning ilmiy jihatdan o'rganilganlik darajasi baholangan. Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining strategik ilmiy yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti aniq ifoda etilgan, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar va tadqiqot usullari belgilab berilgan. Ishning ilmiy yangiligi, amaliyotdagi tatbiqiy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi va joriy etish imkoniyatlari asoslangan. Tadqiqot yakunlari ilmiy jamoatchilikda muhokama qilingani, tegishli aprotatsiyadan o'tkazilgani, nashr etilgan, dissertatsiyaning tuzilishi va umumiy hajmiga oid ma'lumotlar ham to'liq qayd etilgan.

Dissertatsiyaning **“Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachilik tuzumiga qarshi xalq ozodlik kurashlari tarixiga oid manbalar”** deb nomlangan birinchi bobida milliy ozodlik harakatlari va qo'zg'olonchilarga nisbatan ko'rilgan jazo choralarini aks ettiruvchi arxiv materiallari tahlil qilinadi. Shuningdek, mustamlakaviy zo'ravonlikka qarshi qaratilgan kurashlarning davr matbuotida qanday yoritilgani, “Vabo isyoni”, “Doukchi Eshon”, 1916-yil qo'zg'oloni va boshqa xalq qo'zg'olonlarining muzey to'plamlari hamda ekspozitsiyalaridagi ifodasi atroflicha ko'rib chiqiladi.

Mazkur bobning **“Milliy ozodlik uchun kurashlar va qo'zg'olonchilarning jazolanishiga doir arxiv hujjatlari”** deb nomlangan birinchi paragrafi O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan turli farmoyishlar, buyruqlar, hisobotlar, yozishmalar va shaxsiy tarkibga oid hujjatlar asosida shakllantirilgan. Jumladan, 1892-yilgi “Vabo qo'zg'oloni”, 1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni va 1916-yilgi Zomin voqealariga oid boy manbalar I-1¹⁶, I-3, I-17¹⁷, I-19¹⁸, I-36¹⁹, I-223 va I-725²⁰-jamg'armalarda saqlanmoqda.

Ushbu hujjatlar qo'zg'olonlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va bostirilishidagi umumiy omillarni aniqlash imkonini beradi. Xususan, vabo

¹⁶ O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinlarda O'zMA). I-1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 613-yig'majild; O'sha manba. 15-ro'yxat, 486-yig'majild; O'sha manba. 20-ro'yxat, 89-yig'majild; O'sha manba. 25-ro'yxat, 29, 89-yig'majildlar; O'sha manba. 31-ro'yxat, 29, 1219-yig'majild; O'sha manba. I-1-jamg'arma. 31-ro'yxat, 72-yig'majild, 36–38-varaqlar; 76-yig'majild, 6–7-varaqlar; 90-yig'majild, 4-varaq; O'sha manba. I-1-jamg'arma, 5-ro'yxat, 567-yig'majild, 73–74-varaqlar.

¹⁷ O'zMA. I-17-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1344-yig'majild, 35–39, 151–154, 248–276-varaqlar; 1352-yig'majild.

¹⁸ O'zMA. I-19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 36532-yig'majild, 2–3-varaqlar.

¹⁹ O'zMA. I-36-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3364-yig'majild.

²⁰ O'zMA. I-725-jamg'arma, 1-ro'yxat, 7-yig'majild, 5, 6, 7, 10, 12,13, 22, 33, 34-varaqlar.

kasalligining keng tarqalishi orqali ijtimoiy norozilikni keltirib chiqargan 1892-yilgi Toshkent qo‘zg‘oloni, tayyorgarliksiz boshlangan va qisqa fursatda bostirilgan 1898-yilgi²¹ Andijon hamda 1916-yildagi podsho siyosatiga qarshi yo‘naltirilgan Zomin qo‘zg‘oloni yerlik aholining mustamlaka tuzumiga nisbatan noroziligidan dalolat beradi. Arxiv manbalari mazkur qo‘zg‘olonlarning kelib chiqish sabablari, ijtimoiy-siyosiy mohiyati va ularning jazolanish jarayonini har tomonlama tahlil qilish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bobning **“Mustamlaka tuzumiga qarshi milliy harakatlarning matbuot nashrlarida yoritilishi”** nomli ikkinchi paragrafida 1870–1917-yillardagi Turkiston tarixi, xususan, mustamlaka tuzumiga qarshi yuz bergan milliy harakatlar va xalq qo‘zg‘olonlarining matbuotda aks etishi tahlil etilgan. Bu borada “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Ulfat”, “Taraqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Tuqjor”, “Oyina”, “Sadoi Farg‘ona”, “Sadoi Turkiston”, “Buxoroi sharif” va uning ilovasi, “Samarqand”, “Kengash”, “El bayrog‘i”, “Najot”, “Hurriyat”, “Turon”, “Ulug‘ Turkiston” kabi milliy nashrlar²² hamda “Туркестанские ведомости”, “Русский Туркестан”, “Туркестанские курьер”, “Туркестанский край”, “Средне-Азиатский Вестник”, “Средняя Азия” kabi rus tilidagi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalar o‘rganilgan. Shuningdek, “Al-isloh”, “Bayon ul-haq”, “Izhor ul-haq”, “Chayon”, “Sadoq”, “Turkiston chayoni”, “Turkiston qora qurti” kabi ijtimoiy-siyosiy mazmundagi jurnallar orqali jamiyatdagi kayfiyat, xalq orasidagi norozilik va milliy uyg‘onish jarayonlari yoritilgan. Bu nashrlar mustamlakachilik siyosatiga qarshi fikrlarni shakllantirish, milliy ongni uyg‘otish va ozodlik g‘oyalarini keng tarqatishda muhim rol o‘ynagan. Mustamlaka tuzumi ostida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan qattiq nazoratga olingan Turkistonda vaqtli matbuot nashrlarini tashkil etish va ularni davriy chiqarish jiddiy to‘siq va qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lgan. Matbuotda chop etilgan maqolalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, gazeta va jurnallar nafaqat mafkuraviy ta‘sirga ega bo‘lgan, balki ularning ta‘sischilari, muharrir va yozuvchilari ham qatag‘onlarga uchragan. 1906–1908 va 1913–1915-yillari jadidlar tomonidan nashr etilgan barcha matbuot organlari bunga yaqqol misoldir.

Ushbu bobning **“Vabo isyoni, Dukchi Eshon, 1916-yil va boshqa xalq qo‘zg‘olonlarining muzey ekspozitsiyalarida aks etishi”** nomli uchinchi paragrafi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi²³, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi²⁴

²¹ Dukchi Eshon o‘z davrida Farg‘ona vodiysida xalqparvar, sahovatli eshon sifatida obro‘ qozongan, o‘zbek va qirg‘izlar orasida yuzlab muridlari bo‘lgan. O‘z muridlari hamda hamfikrlari bilan bosqinchilarning xalqqa qarshi olib borayotgan zulmkor siyosatini qoralab, bunga qarshi kurashish kayfiyatini doimo qo‘llab turgan.

²² “Turkiston viloyatining gazetasi”ning 2275 ta soni 1870-yil 28-apreldan 1916-yil 16-dekabrgacha Toshkent (1872–1873 yillari Peterburg)da o‘zbekcha, qozoqcha (arab alifbosida) va ruscha chiqqan. “Ulfat” gazetasi S.Peterburgda o‘zbekcha, tatarcha (arab alifbosida) chiqarilgan bo‘lib, 1905-yil 11-dekabrda 1907-yil 1-aprelgacha gazetaning 52 ta soni chop qilingan. “Taraqiy” gazetasi 1906-yil 2-yanvar – avgust oylari oralig‘ida Toshkentda o‘zbekcha (arab alifbosida) nashr etilgan. Gazetaning birinchi sonidan boshlab chor hukumatining mustamlakachilik siyosati fosh etilib, ta‘limni isloh qilish, yangi usuldagi maktablar ochib, dunyoviy fanlarni o‘qitish lozimligi aytilgan. Shundan so‘ng Turkiston oxranka bo‘limi gazetani 20-sonidan keyin yopib, uning muharriri Ismoil Obidovni hibsga olib, Kapolga surgun qilgan. “Xurshid” gazetasi Munavvar qori Abdurashidxonov muharrirligida chiqarilib, 1906-yil 6-sentabrdan 12-noyabrga qadar umumiy hisobda 10 ta soni nashr etilgan. Davriy matbuot nashrlari bo‘yicha dissertatsiyada batafsil ma‘lumotlar berilgan.

²³ O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi (keyingi o‘rinlarda O‘zTDM) fondida 250 ming donadan ortiq ashyolar saqlanadi. Ular orasida arxeologik kolleksiyalar (60 mingdan ortiq), numizmatika (80 mingdan ortiq), etnografiya (16 mingdan ziyod), tabarruk narsalar (10 mingdan ortiq), yangi va eng yangi davr tarixiga doir hujjatlar arxivi, XIX

hamda Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi²⁵ materiallari asosida yoritilgan. Mazkur muzeylar saqlayotgan osori-atiqalar, fotohujjatlar, xarita²⁶ va san'at asarlari XIX–XX asr boshlaridagi xalq qo'zg'olonlari²⁷, jumladan, 1892-yilgi “Vabo isyoni”, 1898-yilgi Dukchi Eshon boshchiligidagi qo'zg'olon²⁸ va 1916-yilgi milliy harakatlar haqida aniq va ishonchli ma'lumotlar taqdim etadi. Ushbu tarixiy voqealarni muzey ekspozitsiyalari orqali yoritish yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g'urur va tarixiy xotira ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi manbalari asosida 1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni yanada kengroq yoritiladi. Muzeydagi “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Andijon: Dukchi Eshon qo'zg'oloni” ekspozitsiyasida qo'zg'olon yetakchisi Muhammadali xalfa Sobir o'g'li Dukchi Eshon²⁹ (1856–1898) portreti, qo'zg'olon sodir bo'lgan Andijon qal'asi, Dukchi Eshon hovlisi va Mingtepa qishlog'ining tasvirlari, qo'zg'olonchilarning kazarmaga hujumi, ularning qo'lga olinishi va doriga osilishi aks etgan fotosuratlar joy olgan. Shuningdek, qo'zg'olondan keyin Turkiston general-gubernatori S.M. Duxovskiyning Andijonga kelishi (1898-yil 23-avgust), Fozilbek Otabek o'g'lining (1879–1938) Dukchi Eshon qo'zg'oloniga bag'ishlangan asari, qator nashrlar³⁰ va “Turkestarskaya vedomost” gazetasining shu voqeaga doir soni ham ekspozitsiyada namoyon qilingan.

Umuman olganda, barcha qo'zg'olonlar mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, ular Turkiston xalqi ozodlik va mustaqillik uchun olib borgan qahramonlik kurashlarining yorqin namunasi sifatida tarix sahifalari va muzey ekspozitsiyalarida munosib o'rin egallagan.

– XX asr va undan oldingi davrlarga tegishli noyob nashrlar saqlanuvchi ilmiy kutubxona bor. Batafsil qarang: Ўзбекистон тарихи давлат музейи (йўлқўрсаткич). Тузувчи Исмоилова Ж.Х., Левтеева Л.Г. – Т. 2013. – 132 б.

²⁴ Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (keyingi o'rinlarda QQXDM)ning tashkil etilishi va 10 ta bo'limi haqida to'liq ma'lumotlar 4-bobning 2-paragrafidagi batafsil tahlil qilinadi.

²⁵ Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi (keyingi o'rinlarda AVTMDM) 1934-yili Qishloq xo'jalik ko'rgazmasi bazasida tashkil etilgan. O'zR VMning 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli qarori asosida Andijon viloyat O'lkashunoslik va Adabiyot va san'at muzeylari birlashtirilib, uning negizida qayta tashkil topdi. AVTMDM asosiy muzey hisoblanib, muzeyning tarkibida 1 ta filial va 4 bo'limlar faoliyat yuritadi. Muzey fondlarida 156 mingdan ziyod bebaho arxeologik asori-atiqalar, rangtasvir asarlari, numizmatika, etnografiyaga oid eksponatlar, shuningdek, o'zbek xalqi tarixining muhim bosqichlarini o'zida aks ettirgan noyob arxiv ma'lumotlari, qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, fotomateriallar va boshqalar saqlanmoqda.

²⁶ QQXDM. 1-bo'lim – O'rta Osiyo (Turkiston)ning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va mahalliy xalqning bochqinchilarga qarshi kurashi. Toshkentning general Chernyayev qo'shini tomonidan ishg'ol qilinishi xaritasi (Терентьев М.А. «История завоевания Средней Азии». СПб. 1906).

²⁷ O'zTDM. VIII bo'lim – “19–20 asrlarda O'zbekiston” (3-qavat). “Turkiston – Rossiya imperiyasining mustamlakasi” ekspozitsiya zalidagi ashyolar.

²⁸ AVTMDM. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Andijon: Dukchi Eshon qo'zg'oloni ekspozitsiyasi.

²⁹ Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (1856–1898) eng obro'li din peshvosi hisoblangan. Uning otasi paxtani chigitdan ajratadigan xalaji va yig, ya'ni dug, beshik yasaydigan hunar egasi bo'lgan. Demak, u hunarmand oilasida dunyoga kelib, voyaga yetgan. Dukchi Eshon uning taxallusi bo'lgan. Eshon deb nomlanishiga sabab, u o'zining iste'dodi va serg'ayratiligi tufayli qishlog'idagi Sultonto'ra Eshonga shogird tushib, yuksak diniy unvonga sazovor bo'lgan. Dukchi Eshon mol-mulk to'plashga berilmay, nazr va sovg'aga keltirilgan barcha boyliklarni qashshoqlarga sarflagan. Jumladan, har kuni belgilab qo'yilgan joyda yuzlab kishilarga tekin ovqat tayyorlab tarqatgan.

³⁰ Фозилбек Отабек ўгли. Дукчи Эшон воқеаси ёки Фарғонада истибод жаллодлари. – Т. 1991. 80 б.; В.П. Сальков. Андижанское восстание в 1898 г. – Казанью 1901. [2], VI, 131 с.; Эгамназаров А. Сиз билан Дукчи Эшон (хужжатли кисса). – Т. 1994 (2022). – 144 б.

Dissertatsiyaning **“Turkistonda sovet boshqaruv tartibining o‘rnatilishi va “qizil terror”ning amalga oshirilishi tarixiga doir manbalar tahlili (1917–1924)”** deb nomlangan ikkinchi bobida 1917–1924-yillari o‘lkada sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan qatag‘onlar arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari va muzey ekspozitsiyalari orqali aks ettirilgan.

Ikkinchi bobning **“Sovet davri qatag‘on siyosati tarixiga oid arxiv hujjatlari”** deb nomlangan birinchi paragrafida Rossiya imperiyasida hokimiyatni qo‘lga olgan bolsheviklar negizi chorizm paytida qo‘yilgan, uzoq yillardan beri mustahkamlanib kelinayotgan mustamlakachilik siyosatini yanada keskin va shafqatsiz ravishda davom ettirganliklari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti adminstratsiyasi arxivi³¹, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati arxivi³², O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi arxivi³³, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi arxivi³⁴, O‘zbekiston Milliy arxivi, O‘zbekiston Kinofotofonohujjatlari milliy arxivi, Toshkent shahar markaziy davlat arxivi, viloyat, tuman va shahar davlat arxivlari, xorij arxivlari, jumladan, Rossiya Federatsiyasi davlat arxivi³⁵, Rossiya ijtimoiy-siyosiy tarixi davlat arxivi³⁶, Rossiya harbiy davlat arxivi³⁷, Rossiya ilmiy-texnikaviy hujjatlar davlat arxivi³⁸, Rossiya Federatsiyasi Federal xavfsizlik xizmati markaziy arxivi³⁹, Turkiya jumhuriyati arxivlar boshqarmasi hamda shaxsiy arxivlari saqlovxonalarida “maxfiy”, “o‘ta maxfiy”, “qat‘iyan maxfiy”, “yopiq hujjat” kabi tamg‘alar ostida saqlangan hujjatlar bilan ochiqqlangan.

Arxiv manbashunosligi nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, O‘zbekiston Milliy arxividagi 1917–1924-yillarga tegishli bo‘lgan jamg‘armalar “R” (revolyutsiya) indeksi bilan belgilangan bo‘lib, aksar yig‘majildlar tituliga “ОЦ” (особо ценный) grifi qo‘yilgan. Ayrim jamg‘armalarning mazkur davrga oid yig‘majidlari “maxfiy”lik grifi ostida saqlanmoqda. Jumladan, R-1714⁴⁰ – O‘zSSR Oliy sudi jamg‘armasining 1917–1924-yillarni o‘z ichiga olgan hujjatlari ham, ro‘yxatlari ham “maxfiy” saqlangani uchun, ushbu davrda qatag‘on qilingan shaxslar, ularning ustidan o‘tkazilgan sud-tergov jarayonlarini o‘rganish imkoni bo‘lmadi.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan viloyat, tuman va shahar davlat arxivi manbalari qatag‘on siyosati tarixini yanada ochiqqlaydi. Samarqand viloyati davlat arxivining 31, 65, 267, 140, 148, 186, 256, 352, 572, 995, 1656, 1685, 1705-jamg‘armalarida qatag‘on siyosati tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan birlamchi materiallar

³¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti adminstratsiyasi arxivi (keyingi o‘rinlarda O‘RPAA).

³² O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati arxivi (keyingi o‘rinlarda O‘RDXXA).

³³ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi arxivi (keyingi o‘rinlarda O‘RIIVA).

³⁴ O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi arxivi (keyingi o‘rinlarda O‘RMVA).

³⁵ Rossiya Federatsiyasi davlat arxivi (RFDA) – Государственный архив Российской Федерации (ГАРФ). Mazkur arxivda 2024-yil iyul oyida tadqiqot olib borilgan.

³⁶ Rossiya ijtimoiy-siyosiy tarixi davlat arxivi (RISTDA) – Российский государственный архив социально-политической истории (РГАСПИ).

³⁷ Rossiya harbiy davlat arxivi (RHDA) – Российский государственный военный архив (РГВА).

³⁸ Rossiya ilmiy-texnikaviy hujjatlar davlat arxivi (RITHDA) – Российский Государственный архив научно-технической документации (РГАНТД).

³⁹ Rossiya Federal xavfsizlik xizmati markaziy arxivi (RFFXXMA).

⁴⁰ O‘zbekiston Milliy arxivi saqlovidagi R-1714 – O‘zSSR Oliy sudi jamg‘armasining 1925–1990-yillarga oid hujjatlari 2020–2022-yillari olib borilgan izlanishlar natijasida ko‘rib chiqilgan.

mavjud⁴¹. Arxiv manbalaridan ma'lum bo'lishicha, 1917-yil 7-dekabrda Xalq komissarlari soveti F.Ye.Dzerjinskiy boshchiligida "Aksilinqilobchilik va ish tashlashlikka qarshi kurash bo'yicha Butunrossiya Favqulodda komissiyasi (BЧК)⁴²ni tuzish to'g'risida" qaror qabul qilgan. 1919-yil 17-maydan boshlab Butunrossiya Markaziy ijroiya qo'mitasining qarori bilan VChK Konsentratsion lagerlari va Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD)⁴³ning majburiy ish lagerlarini tashkil etish ishlari boshlab yuborilgan. Butunrossiya Favqulodda komissiyasi tashkil etilgandan 1939-yilgacha bo'lgan vaqtda 450 o'zbekistonliklar ustidan jinoiy ish qo'zg'atilgan⁴⁴.

Mazkur bobning "*Davriy matbuotda sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan qatag'on siyosati*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida "Ulug' Turkiston", "Ishtirokiyun"⁴⁵, "Qizil bayroq", "Qizil O'zbekiston", "Turkiston", "Inqilob quyoshi"⁴⁶, "Kambag'allar tovushi", "Mehnatkashlar tovushi", "Mehnatkashlar o'qi", "Yosh Sharq"⁴⁷, "Farg'ona", "Yangi Farg'ona", "Zarafshon"⁴⁸, "Xorazm xabarleri", "Buxoro axbori", "Ozod Buxoro", "Axbor"⁴⁹, "Вечерние известия", "Жизнь национальностей", "За партию", "Известия ВЦИК"⁵⁰, "Красный звон", "Туркестанский голос"⁵¹, "Туркестанский зритель"⁵², "Туркестанское слово"⁵³, "Красная звезда"⁵⁴, "Наша газета", "Наш путь", "Новый путь", "Новый Туркестан", "Правда Востока", "Туркестанская правда"⁵⁵, "Туркестанский вестник", "Узбекистанская правда" "Коммуна", "Знамя труда", "Красная Фергана", "Пролетарий", "Рабочий пут", "Щит народа"⁵⁶, "Inqilob", "Haqiqat", "Yer yuzi", "Maorif va o'qituvchi" kabi o'zbek (arab, lotin, kirill alifbosida) va rus tillaridagi gazeta hamda jurnallar sahifalaridagi materiallar tahlil qilingan.

Jumladan, "Ulug' Turkiston" gazetasi sahifalarida "Umumturkiston musulmonlarining qurultoyi"⁵⁷, "Muhim qarorlar. Turkiston musulmonlarining

⁴¹ Samarqand viloyati davlat arxivi (keyingi o'rinlarda SVDA). 31-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 2-varaq. O'sha manba. 148-jamg'arma, 2-ro'yxat, 2-yig'majild, 2-varaq.

⁴² Всероссийская чрезвычайная комиссия (ВЧК) – Butunrossiya favqulodda komissiyasi (BЧК).

⁴³ Народный комиссариат внутренних дел (НКВД) – Ichki ishlar xalq komissarligi (ИИХК).

⁴⁴ Бахтиёр Ҳасанов. "Қатта қирғин"нинг ҳуқуқий ҳужжатлар базаси. Т. 2014. 3-бет.

⁴⁵ Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi (keyingi o'rinlarda O'zMK). Nodir nashrlar bo'limi. Saqlov raqami – G-62 (1918 – 1920). Toshkent.

⁴⁶ "Inqilob quyoshi" – Xorazm markaz ijroiya qo'mitasi Markaz ishtirokiyun firqa qo'mitalari tomonidan haftada ikki marta chiqarilgan, siyosiy va ijtimoiy gazeta. U o'zbekcha, arab alifbosida chop qilingan. O'zMK. Nodir nashrlar bo'limi. Saqlov raqami – G-65, G-85, G-125.

⁴⁷ O'zMK. Nodir nashrlar bo'limi. Saqlov raqami – G-96 (1921). Toshkent.

⁴⁸ "Zarafshon" siyosiy-ijtimoiy va adabiy gazetasi 1922-yil 27-oktabrdan Samarqandda haftada ikki marta chiqqan. Gazeta tili o'zbekcha, arab alifbosida bosilgan. O'zMK. Nodir nashrlar bo'limi. Saqlov raqami – G-73 (1922–1928).

⁴⁹ Axbor – Rusiya sho'rolar jumhuriyatidan Xorazm ijroiya jumhuriyatiga kelgan komil huquqli vakolatining afkori bo'lib, Xorazmda chop qilingan. U "Izvestiya" gazetasi asosida tarjima qilingan. O'zMK. Nodir nashrlar bo'limi. Saqlov raqami – G-62 (1921).

⁵⁰ O'zMK. Nodir nashrlar bo'limi. Saqlov raqami – G-52.

⁵¹ O'zMK. Nodir nashrlar bo'limi. Saqlov raqami – G-16. Andijon.

⁵² O'zMK. Nodir nashrlar bo'limi. Saqlov raqami – G-44. Toshkent.

⁵³ O'zMK. Nodir nashrlar bo'limi. Saqlov raqami – G-14. Gazeta Toshkent va Andijonda nashr qilingan.

⁵⁴ O'zMK. Nodir nashrlar bo'limi. Saqlov raqami – G-40. Gazeta Toshkentda chop qilingan. Kutubxonada 1922–1923, 1927-yili chiqarilgan sonlari mavjud.

⁵⁵ O'zMK. Nodir nashrlar bo'limi. Saqlov raqami – G-37. Toshkent.

⁵⁶ O'zMK. Nodir nashrlar bo'limi. Saqlov raqami – G-4 (1917), G-21 (1918). Gazeta Farg'onada chop qilingan.

⁵⁷ Umumturkiston musulmonlarining qurultoyi // "Ulug' Turkiston" gazetasi. 1917-yil 25-aprel.

qurultoyi oziq masalasida qabul qilgan qarorlari”⁵⁸, “Turkistong‘a avtonomiya olu haqinda”⁵⁹, “Milliy va madaniy muxtoriyat”⁶⁰, “Milliy va madaniy muxtoriyatni vujudga chiqaruv hay‘atidan. Millatg‘a xitob”⁶¹, “Turkiston musulmonlarining ikkinchi qurultoyi”⁶², “Turkiston fidiratsiyasi (muxtoriyat)”⁶³, “Muxtoriyat kuni”⁶⁴, “Turkiston musulmonlarining qurultoyi”⁶⁵, “Turkiston muxtoriyati va iqtisodiy aiftonumiya”⁶⁶, “Turkiston muxtoriyati”⁶⁷, “1917-yil 27-noyabrda umuturkiston musulmonlarining favqulotda syezdi tarafidan Turkiston muxtoriyatining muvaqqat shurosi hay‘atiga saylangan kishilar”⁶⁸, “Turkiston muxtoriyatining barpo bo‘lishiga kuch kerak”⁶⁹, “Turkiston xabarlari: Turkiston muxtoriyatining fojeasi”⁷⁰, “Xo‘qand fojealari”⁷¹, “Xo‘qand qurbonlari”⁷² va boshqa 100 dan ortiq xabar va maqolalar e‘lon qilingan.

Ikkinchi bobning **“Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi va milliy istiqlolchilik kurashlarini bostirishga oid muzey ekspozitsiyalari”** deb nomlangan uchinchi paragrafi muzeydagi eksponatlar, fotohujjatlar, audio va video lavhalar asosida yoritilgan.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining “Turkiston muxtoriyati” deb nomlangan ekspozitsiyasida Turkiston muxtoriyati tashkil etilganligi haqidagi e‘lon⁷³, muxtoriyat bayrog‘i⁷⁴, 1917-yil 4-noyabrdagi o‘lka musulmonlari 4-qurultoyi tarkibi ko‘rsatilgan hujjat⁷⁵ va qurultoy qatnashchilari fotosi⁷⁶, Turkiston ishchi askarlarining muxtoriyatga murojaati⁷⁷, Turkiston muxtoriyati a‘zolari⁷⁸ va Eski shaharda Turkiston muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida yig‘ilgan xalqning

⁵⁸ Muhim qarorlar. Turkiston musulmonlarining qurultoyi oziq masalasida qabul qilgan qarorlari // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi.1917-yil 25-aprel.

⁵⁹ N. Yovushev. Turkistong‘a avtonomiya olu haqinda // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi.1917-yil 5-may.

⁶⁰ Sobirjon Yusuf, Burnashev. Milliy va madaniy muxtoriyat // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi.1917-yil 27-iyul, 9-avgust.

⁶¹ Milliy va madaniy muxtoriyatni vujudga chiqaruv hay‘atidan. Millatg‘a xitob // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi.1917-yil 27-avgust.

⁶² Turkiston musulmonlarining ikkinchi qurultoyi // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. 1917-yil 10-sentabr.

⁶³ E‘lon. Turkiston fidiratsiyasi (muxtoriyat) (Islom Shomahmudov tomonidan nashr qilingan kitob haqida) // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. 1917-yil 4, 9-oktabr.

⁶⁴ E‘lon. Muxtoriyat kuni (17 noyabr kuni muxtoriyat uchun milliy xazina yig‘ish kuni ekanligi haqida) // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. 1917-yil 8-noyabr.

⁶⁵ Turkiston musulmonlarining ikkinchi qurultoyi // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. 1917-yil 10-sentabr.

⁶⁶ Islom Sulton Shoahmedof. Turkiston muxtoriyati va iqtisodiy aiftonumiya // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. 1917-yil 18-noyabr.

⁶⁷ Turkiston muxtoriyati // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. 1917-yil 8-dekabr.

⁶⁸ 1917-yil 27-noyabrda umuturkiston musulmonlarining favqulotda syezdi tarafidan Turkiston muxtoriyatining muvaqqat shurosi hay‘atiga saylangan kishilar // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. 1917-yil 8-dekabr.

⁶⁹ Muxtor Bakir. Turkiston muxtoriyatining barpo bo‘lishiga kuch kerak // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. 1917-yil 24-dekabr.

⁷⁰ Turkiston xabarlari: Turkiston muxtoriyatining fojeasi // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. 1918-yil 25-fevral.

⁷¹ Xo‘qand fojealari // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. 1918-yil 14-mart.

⁷² Xo‘qand qurbonlari // “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. 1918-yil 9, 12, 14, 19-mart.

⁷³ O‘zTDM. Turkiston muxtoriyati ekspozitsiyasi. Turkiston muxtoriyati tashkil etilganligi haqidagi e‘lon. 1917-yil. Eksponat shakli: Hujjat. O‘lchami: 18,5x27.

⁷⁴ O‘zTDM. Turkiston muxtoriyati bayrog‘i. Eksponat shakli: Bayroq.

⁷⁵ O‘zTDM. O‘lka musulmonlari 4-qurultoyi tarkibi. 1917-yil, noyabr. Eksponat shakli: Foto hujjat. O‘lchami: 31x41.

⁷⁶ O‘zTDM. O‘lka musulmonlari 4-qurultoyi qatnashchilari. 1917-yil, noyabr. Eksponat shakli: Foto. O‘lchami: 29,5x20.

⁷⁷ O‘zTDM. Turkiston ishchi askarlar Turkiston muxtoriyatiga murojaati. 1917-yil. Eksponat shakli: Fotohujjat. O‘lchami: 32,5x21.

⁷⁸ O‘zTDM. Turkiston muxtoriyatiga a‘zolari. 1917-yil. Eksponat shakli: Foto. O‘lchami: 49x33,5.

surati⁷⁹, “Ulug‘ Turkiston” gazetasidagi telegrammalardan namuna⁸⁰, muxtoriyat tugatilishida ishtirok etgan qizil qo‘shin⁸¹, Qo‘qon shahrining fojeali ko‘rinishi⁸² aks etgan suratlar berilgan. Mazkur ekspozitsiya materiallari tahliliga ko‘ra, 1917-yil oktabr voqealari Rossiya, shu jumladan, Turkiston xalqlarining o‘z taqdirini o‘zi belgilash, ajralib chiqish va mustaqil davlat tuzishgacha bo‘lgan huquqlariga oid balandparvoz shiorlar ostida amalga oshirilgan. Lekin amalda milliy mentalitetga yot sotsialistik davlatchilik tartibotlari ilgaridan ma‘lum bo‘lgan mustamlakachilik o‘zanida zo‘rlik bilan joriy etila boshlangan. Bolsheviklar hokimiyati tubjoy aholiga nisbatan boshidanoq begona ko‘z bilan qaraganligini quyidagi fikrlar ham tasdiqlab turibdi: “Hozirgi paytda musulmonlarning o‘lka oliy inqilobiy hokimiyati organlariga jalb qilinmagani maqbuldir, chunki mahalliy aholining proletar sinfiy tashkilotlariga munosabati to‘la aniq emas”⁸³.

Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining Turkiston muxtoriyatining tugatilishi va sovet hokimiyati qatag‘on siyosatining boshlanishi (1917–1918-yillar) ekspozitsiyasida “Taraqqiyparvarlarning yangi matbuot nashrlari”, “Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi, tugatilishi va sovet hokimiyati qatag‘on siyosatining boshlanishi”, “Bolsheviklarning Turkistonda hokimiyatni zo‘ravonlik bilan egallab olishi” kabi masalalar mohiyati “Turkiston general-gubernatorining qarorgohi”⁸⁴, “Muvaqqat hukumatni ag‘darish haqidagi qarorning imzolanishi”⁸⁵, “Harbiy majlis binosi”⁸⁶, “Bolsheviklarning ilk qarorgohi”⁸⁷, “Qizil askarlar Turkistonda”⁸⁸, “Toshkent ishchi deputatlar Sovetining ishchilarga murojaati”⁸⁹, “Turkistonda milliy uyg‘onish harakati”⁹⁰, “Turkiston muxtoriyati tashkil etilganligi to‘g‘risidagi deklaratsiya”⁹¹ deb nomlangan fotohujjatlar, arxiv manbalari hamda XX asr boshlariga oid ashyolar⁹² asosida ochib berilgan.

“O‘zSSRda sovet davri qatag‘on siyosati va uning oqibatlariga oid manbalar (1924–1991)” deb nomlangan uchinchi bobda 1924–1991-yillari amalga oshirilgan ommaviy qatag‘onlar yoritilgan.

Mazkur bobning **“Sovet hokimiyati qatag‘on siyosatining davom ettirilishi bilan bog‘liq arxiv hujjatlari”** deb nomlangan birinchi paragrafida O‘zbekiston

⁷⁹ O‘zTDM. Eski shaharda Turkiston muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlash. 1917-yil. Ekspонат shakli: Foto. O‘lchami: 40,5x30,5.

⁸⁰ O‘zTDM. Ulug‘ Turkiston telegrammalari. 1917-yil № 11. Ekspонат shakli: Gazeta fotonusxasi. O‘lchami: 22x36.

⁸¹ O‘zTDM. Muxtoriyat tugatilishida ishtirok etgan qizil qo‘shin. 1918-yil. Ekspонат shakli: Foto.

⁸² O‘zTDM. Qo‘qon shahrining fojeali ko‘rinishi. 1918-yil. Ekspонат shakli: Foto (3 dona).

⁸³ O‘zTDM. Ekspонат shakli: Matn.

⁸⁴ QQXDM. Turkiston muxtoriyatining tugatilishi va sovet hokimiyati qatag‘on siyosatining boshlanishi (1917 – 1918-yillar) ekspozitsiyasi. Turkiston general-gubernatorining qarorgohi. 1917-yil. Ekspонат shakli: Foto nusxa va matn. O‘lchami: 280,0 mm, 420,0 mm.

⁸⁵ QQXDM. Muvaqqat hukumatni ag‘darish haqidagi qarorning imzolanishi. 1917-yil. Ekspонат shakli: Foto nusxa. O‘lchami: 286,227 mm, 200,655 mm.

⁸⁶ QQXDM. Harbiy majlis binosi. 1917-yil. Ekspонат shakli: Foto nusxa va matn. O‘lchami: 220,204 mm, 386,396 mm.

⁸⁷ QQXDM. Bolsheviklarning ilk qarorgohi – Tashsovet binosi. 1917-yil. Ekspонат shakli: Foto nusxa. O‘lchami: 369,98 mm, 264,997 mm.

⁸⁸ QQXDM. Qizil askarlar Turkistonda. Ekspонат shakli: Foto nusxa. O‘lchami: 285,609 mm, 164,265 mm.

⁸⁹ QQXDM. Toshkent ishchi deputatlar Sovetining ishchilarga murojaati. Ekspонат shakli: Hujjat nusxa. O‘lchami: 300,0 mm, 420,0 mm.

⁹⁰ QQXDM. Turkistonda milliy uyg‘onish harakati. Ekspонат shakli: Elektron hujjat.

⁹¹ QQXDM. Deklaratsiya. Turkiston muxtoriyati tashkil etilganligi to‘g‘risidagi deklaratsiya. Ekspонат shakli: Hujjat nusxa. O‘lchami: 300,0 mm, 420,0 mm.

⁹² QQXDM. XX asr boshlariga oid qalamdon, telefon va shamdonlar. Ekspонат shakli: Buyum.

Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi arxivi saqlovidagi 20 ga yaqin, jumladan, 1, 4, 5, 10, 33, 58, 60, 77, 104, 137, 242, 275, 391, 393, 499, 722, 793, 794, 859-jamg'armalaridan 76 ta ro'yxat, 323 ta yig'majildlar tahlili qilingan. Hujjatlarni ko'rib chiqish natijasida 2005 nafar qatag'onga uchragan va partiyadan chiqarilgan shaxslar nomlari aniqlandi. Aniqlangan siyosiy qatag'on qurbonlarining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Sovet hukumatining qatag'on tegirmoni yurt kelajagi bo'lmish yoshlarni ham chetlab o'tmaganligi arxiv manbalarida yanada yorqinroq aks etgan. 1920–1922-yillari Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm xalq sho'ro jumhuriyatlaridan 300 ga yaqin talaba o'qish uchun xorijiy mamlakatlarga yuborilgan. Ularning 70 dan ortig'i Germaniyaning turli shaharlaridagi oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlarida ekin-tikinlik, to'qimachilik sanoati, kimyo, elektron texnika, konchilik, falsafa, pedagogika, shifokorlik, matbaachilik kabi muhim sohalar bo'yicha o'qiganlar. Jumladan, o'qishni Germaniyada bitirib, yurtga qaytgan Sattor Jabbor, To'lagan Mo'min, Muhammadi Xo'ja, Sulton Matqul, Azimbek Berimjon, Rauf Rasuliy, Xayriniso Majidxonova, Maryam Sultonmurodova va boshqalar egallagan bilimlarini hali to'laligicha namoyon etmay, sovet hokimiyatiga qarshi aksilinqilobchi va millatchi tashkilot a'zolari sifatida ayblanganlar⁹³ va ko'pchiligi 1938-yilning 4–9-oktabr kunlari otib tashlanganlar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati arxivi saqlovidagi P-2417, P-19460, P-22934, P-23610, P-22408, P-22935, P-25037, P-22414, P-22419, P-21202, P-19981, P-20787, P-18896, P-21051, P-22422, P-22411, P-31922 P-32592, P-15461, P-27705, P-36368, P-7450, P-14747, P-33391, P-8548 kabi arxiv hujjatlari tahliliga ko'ra, tergov jarayonida "mahbuslar"ni bir necha oy, hatto yillar mobaynida qamoqda asossiz ushlab turish, muddatni surish va jismoniy-ma'naviy tazyiqlar, azoblash va qiynoqlar qo'llanganini ko'rsatadi. "Xo'ja ko'rsin"ga uyushtirilgan sud jarayonlari nomiga o'tkazilib, o'lim hukmlari sudlanuvchiga e'lon qilinmagan, ular hukm haqida qatl oldidan bilganlar. Bugun otib o'ldirilgan shaxs ustidan hukm ertasiga o'tkazilgan sud yig'ilishida rasmiylashtirilgan va e'lon qilingan.

O'zbekiston Kinofotofono hujjatlari Milliy arxivi fondida saqlanayotgan 0-11194, 0-9929, 0-81434, 0-112150, 0-98035, 0-15810, 0-105561, 0-130702, 0-105564, 0-105561, 0-957, 0-67289, 0-134808, 0-77522, 0-123709, 1-44950-98474, 0-81530, 0-67286 raqamli fotohujjatlar, shuningdek, 1808xr, 2222xr, 2226xr, 35xr, 632xr raqam ostidagi kinohujjatlar hamda boshqa tarixiy audiomateriallar 1924–1980-yillar oralig'idagi qatag'on davrlarini yorituvchi noyob manba sifatida alohida ahamiyatga ega⁹⁴.

Bobning ***"Stalincha qatag'on siyosatiga oid davriy matbuotdagi xabar va maqolalar tahlili"*** deb nomlangan ikkinchi paragrafida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilgan qatag'on siyosati turkistonlik muhojirlarining "Yangi Turkiston" (Berlin, 1942–1945), "Hur Turkiston uchun Istiqlolchi gazetasi" (Istanbul, 1975–1977), "Vatan" (Peshovar, 1983–1991), "Mustaqil haftalik" (Moskva, 1992–1994) va "Yangi mustaqil haftalik" (Moskva, 1995) kabi gazetalar,

⁹³ Хасанов Б., Ирзаев Б. Миллатимиз фидойилари (илмий-оммабоп мақолалар тўплами). – Т. 2020. – 332 б.

⁹⁴ O'zbekiston Kinofotofono hujjatlari Milliy arxivida 2021-yili tadqiqotlar olib borilib, mavzuga doir 500 dan ortiq surat, ovozi va kino hujjatlar aniqlangan.

“Yangi Turkiston” (Istanbul, 1927–1931), “Yosh Turkiston” (Fransiya, 1929–1936, 1938–1939), “Milliy Turkiston” (Germaniya, 1942–1975), “Milliy adabiyot” (Berlin, 1943–1945), “Turk eli” (Munih, 1951–1953), “Tarjimoni afkor” (Karachi, 1952–1957), “Turkiston” (Qohira, 1954), “Turkiston sadosi” (Ankara, 1956–1957), “Buloq” (Adana, 1959–1962), “Buyuk Turk eli” (Izmir, 1962), “Buyuk Turkiston” (Istanbul, 1975), “Turkiston” (Istanbul, 1988–1995), “Tomchi” (Munih, 1995 – hozirgi vaqtgacha), “Erk” (Moskva, 1994–1996), “O‘zlik” (Moskva, 1994–1995) va “Harakat” (1995) kabi jurnallar, “Turkiston” (Nyu-York, 1973), “Turkiston yoshlari birligi bosh qarorgohi oylik habarnomasi” (Kayseri, 1978–1979), “Turkiston birligi ovozi” (Nyu-York, 1984–1985), “Turkiston ovozi” (Munih, 1985–1990) va “Bugungi Turkiston” (Munih, 1989–1990) kabi byulletenlar hamda ingliz tilli davriy matbuot nashrlari asosida yoritilgan.

Ushbu majmualarda sovet hokimiyatining mustamlakachi siyosati, yerlik millatlarning siyosiy va madaniy huquqlari poymol qilinayotgani haqida ko‘plab maqolalar chop etilgan⁹⁵. Jumladan, “Yangi Turkiston”⁹⁶ va “Yosh Turkiston” kabi nashrlar sovet hukumati tomonidan Turkistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy zo‘ravonlik, ma‘naviy qashshoqlashtirish va yerlik aholiga nisbatan adolatsiz siyosiy ta‘qiblarni ochiq-oydin tanqid qilgan.

Mazkur nashrlarda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tatar va boshqa turkiy xalqlar ziyolilari, jumladan, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on, Mustafo Cho‘qay, Solih Ismoil Erkinqul, Abdulqodir Inon, Abdulloh Zoda Tavakkul, Mag‘jon Jumaboy, Mustafo Shohquli, Ahmad Naim O‘ktam, Ahmad Haqqi, Najmiddin Ahmad Dalil, Jafar Said Ahmadbek, Husayn Boyqaro, Kozimzoda, Burxoniddin Balxiy, Vali Qayumxon, Zakir Qurbonov va boshqalar qalamiga mansub maqolalar muntazam chop etilib, jadid ma‘rifatparvarlari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Elbek va boshqalarning jurnal hamda qo‘mita bilan bog‘liq xotiralari, ularning tarjimai hollari hamda ularning ijod namunalari muntazam berib borilgan. Turkistonning madaniy va siyosiy mustaqilligiga erishish masalasi doimiy ravishda ko‘tarilgan. Turkistonlik muhojirlar bu nashrlar orqali sovet hukumatining ichki va tashqi siyosatiga tanqidiy yondashib, Turkistondagi qatag‘on siyosati haqida xalqaro jamoatchilikni xabardor qilishga harakat qilganlar.

“Qizil O‘zbekiston”, “Правда Востока”, “Yangiyo‘l”⁹⁷, “Sharq haqiqati”, “Yangi Farg‘ona” gazetalarida “Qosimovchilar sudi” jarayonining tayyorlanishi va amalga oshirilishi haqida ko‘plab maqola va xabarlar berib borilgan. Birgina “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1929-yil 17-apreldan 1930-yil 8-sentabrgacha nashr

⁹⁵ Batafsil qarang: Darmonova Mashhuraxon. Milliy Turkiston: jadidchilik va qatag‘on. – T. 2024. – 196 b.

⁹⁶ “Yangi Turkiston” jurnali Turkiyadagi muhojir jadidlarning ilk matbuot organi bo‘lib, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev bosh muharrirligi ostida chop etilgan. 1927-yil 5-iyundan 1931-yil sentabrgacha jurnalning jami 39 ta soni Istanbulda bosilgan. Jurnalning so‘nggi sahifasida bosmaxona manzili dastlab Istanbuldagi Gumushhane ko‘chasi 5-uy, keyinchalik Nuriosmoniya, Orif Posho ko‘chasi 4-uyda joylashganligi ko‘rsatilgan. Istanbulning Anqara markaziy ko‘chasidagi Zamon kutubxonasi esa jurnal tarqatiladigan joy bo‘lgan. “Yangi Turkiston” siyosiy, ilmiy, adabiy, iqtisodiy jurnal bo‘lib, 32 sahifalik holda oyda bir marta chiqqan. Jurnal tili Onado‘li turkchasi, Turkiston (chig‘atoy) turkchasida arab harfida chop qilingan. 1928-yil noyabr oyida Turkiyada arab alifbosidan lotin alifbosiga o‘tilishi bilan “Yangi Turkiston” jurnali ham, aniqrog‘i 17-sonidan boshlab lotin alifbosida nashr qilingan.

⁹⁷ O‘zMK. Nodir nashrlar bo‘limi. Saqlov raqami – G-16 (1930, o‘zbekcha, arab alifbosida), G-85 (1937, o‘zbekcha, lotin alifbosida). Yangiyo‘l.

qilingan sonlarida “Qosimovchilik ishi” bo‘yicha 75 ta maqola e‘lon qilingan⁹⁸. Jumladan, “Ilgarigi Oliy sud raisi hukm ostida”⁹⁹ nomli xabarda O‘zbekiston SSR Oliy sudi raisi Sa‘dulla Qosimov hukumat obro‘yini tushirishda ayblanib, ishdan bo‘shatilganligi, “Qosimovchilar sudida: “Ittihodi turkchilar”ning vahshatlari”¹⁰⁰ nomli maqolada Obidxo‘ja Saidovning ko‘rsatmalari, “Qosimovchilar sudida: Parchalangan kema qo‘mondoni”¹⁰¹ nomli maqolada Sharipov haqida Haqberdiev va Kondiratorovning sudda bergan guvohliklari, “Qosimovchilar sudida: Qosimov ongli aksilinqilobchi”¹⁰² nomi ostidagi maqolada davlat qoralovchisi Katanyanning nutqi, “Qosimovchilar sudida: Ittifoq Oliy sudi shunday qaror chiqardi: Qosimov ishi bo‘yicha 27 kishi intizomiy va jinoiy mas‘uliyatga tortiladilar”¹⁰³ nomli maqolada Sharofiddinov, Chudayev, Sayfiddinov, Kopsov, Udalayev, Qurmaev, Qurbonov, Bahodir qori Qosimov, Husayn To‘rayev, To‘xtaxo‘ja Tojiyev, Saidahmad Saidakromov, Yusuf Mirzamuhammedov, Abulxayrov va Karimovga nisbatan ochilgan jinoiy ish va sud qarori, “Bugun – partiya aktivlarining majlisi”¹⁰⁴ nomli maqolada esa Samarqand partiya tashkilotining faollar majlisida Akmal Ikromovning “Qosimovlar sudining yakuniga doir ma‘ruza qilishi haqidagi bildirish kabi ma‘lumotlar bosilgan. Sa‘dulla Qosimov sudi tamom bo‘lmay turib “Xalq Maorif komissarligi ishi”, “Munavvar qori Abdurashidxonov va Salimxon Tillaxonov ishi” dabdabali sud jarayoni boshlangan va matbuotda mazkur masalaga doir xabar va maqolalar e‘lon qilina boshlangan.

XX asrning 30-yillaridagi ingliz matbuotida O‘zbekistondagi sovet qatag‘oni doirasidagi “Qosimovchilar ishi” haqida ham bir qancha maqolalar chop etilgan. Jumladan, 1930-yili Angliya matbuotida e‘lon qilingan maqolalarda ushbu ish bo‘yicha chiqarilgan hukmlar yoritilgan. Unda O‘zbekiston (Turkiston) Oliy sudi tomonidan sobiq raisi S.Qosimov, sobiq prokuror B.Sharipov va ikki advokat, jumladan, Alimov o‘lim jazosiga, uch nafar sobiq sudya esa o‘n yillik qamoq jazosiga hukm qilingani haqida ma‘lumot berilgan¹⁰⁵.

Amerikada “Musulmon Dunyosi” (“Muslims’ World”), “Markaziy Osiyo sharhi” (“Central Asian Review”), “O‘rol–Oltoy yilnomasi” (“Ural-Altai Yearbook”), “O‘zbek so‘zi” (“Uzbek Word”) kabi ko‘plab jurnal va gazetalar faoliyat yuritgan¹⁰⁶. Amerika va ingliz matbuotida chop etilgan gazetalar tahliliga ko‘ra, qatag‘on siyosati davrida kishilarga davlat siyosatini amalga oshirishda loqaydlik, davlatga xiyonat, fashizmga aloqadorlik, sovet hukumatiga qarshi isyon kabi ayblovlar qo‘yilgan.

⁹⁸ Нуриддинова Ф. Миллий матбуот фихристи. – Т. 2020. – 371–378-бетлар.

⁹⁹ Ilgarigi sud raisi hukm ostida. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1929-yil 17-aprel.

¹⁰⁰ S.G. Qosimovchilar sudida: “Ittihodi turkchilar”ning vahshatlari. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1930-yil 22-aprel.

¹⁰¹ Sher Amin. Qosimovchilar sudida: Parchalangan kema qo‘mondoni. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1930-yil 22-may.

¹⁰² Sh. Qosimovchilar sudida: Qosimov ongli aksilinqilobchi. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1930-yil 4-iyun.

¹⁰³ “Qosimovchilar sudida: Ittifoq Oliy sudi shunday qaror chiqardi: Qosimov ishi bo‘yicha 27 kishi intizomiy va jinoiy mas‘uliyatga tortiladilar”. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1930-yil 25, 26-iyun.

¹⁰⁴ Shahar-rayon partiya qo‘mitasi. Bugun – partiya aktivlarining majlisi. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1930-yil 8-sentabr.

¹⁰⁵ Yex-Judge to Die / London, Yengland. Daily Herald. 23 June 1930. P. 9; Yex-judge to die Moscow / Yorks‘hire, Yengland. Yorks‘hire Post and Leeds Intelligencer. 23 June 1930. P. 11; Judge Sentenced Death / Nottinghams‘hire, Yengland. Nottingham Evening Post. 23 June 1930. P. 1.

¹⁰⁶ Холов. В.Ю. Ўзбекистонда совет катафон сиёсати инглиз матбуоти нигоҳида. Бухоро давлат университети илмий ахбороти. 2024. № 10. – 173–178-бетлар.

Uchinchi bobning *“1924–1991-yillardagi qatag‘onlarning muzeylarda yoritilishi”* deb nomlangan uchinchi paragrafida O‘zbekiston SSRda 1924–1991-yillar davomida ko‘plab ziyolilar, siyosiy arboblari, diniy shaxslar va oddiy fuqarolar nohaq ta‘qib qilinib, qamoqqa olingan yoki qatl etilgani O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyi, Andijon davlat universiteti qoshidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi, Namangan viloyati Ishoqxon to‘ra Ibrat muzeyi, Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi, Abdulla Qodiriy uy-muzeyi, Mirtemir adabiyot muzeyi¹⁰⁷, Oybek uy-muzeyi¹⁰⁸, Qarshi davlat universiteti qoshidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi, Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi, Yozuvchilar uyushmasi muzeyi, Chirchiq shahar tarixi muzeyi va boshqa muzeylar manbalari misolida asoslangan.

1924–1991-yillar davomida O‘zbekiston va Sovet Ittifoqida keng ko‘lamli qatag‘onlar amalga oshirilgan bo‘lib, ular asosan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu davrda ko‘plab ziyolilar, siyosatchilar, harbiylar, dehqonlar, din arboblari va boshqa jamiyat a‘zolari nohaq ta‘qib qilingan, qamoqqa olingan yoki qatl etilgan. Tadqiq etilayotgan davrda amalga oshirilgan qatag‘on bosqichlari va asosiy voqealari Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarida quyidagicha aks ettirilgan:

1. 1920–1930-yillardagi siyosiy va mafkuraviy qatag‘onlar. 1924–1936-yillari O‘zbekiston SSR tashkil topgach, sovet hokimiyati o‘z siyosatiga qarshi chiquvchilarni yo‘q qilishga harakat qilgan. Bu davrda “Bosmachilar”ga qarshi kurash siyosati olib borilgan va sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik ko‘rsatgan “bosmachilar” va ularga yordam bergan yerlik aholi qattiq ta‘qib qilingan. Shuningdek, milliy madaniyat va tilni rivojlantirishga hissa qo‘shgan ziyolilar “burjua millatchilari” va “panislomchilar” sifatida ta‘qibga uchragan. Ular orasida Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi yirik shaxslar bor edi. Sovetlashtirish va kollektivlashtirish siyosati natijasida, 1929-yildan boshlangan majburiy kollektivlashtirish jarayonida ko‘plab boylar va mulkdorlar “quloqlar” nomi ostida qatag‘on qilingan.

2. 1937–1938-yillardagi “Katta qirg‘in”da Sovet Ittifoqida eng qonli repressiya davri bo‘lgan. Iosif Stalin boshqaruvi ostida qat‘iy mafkuraviy va siyosiy tozalashlar olib borilgan. 1937–1938-yillari “xalq dushmanlari”ga qarshi kurash kampaniyasi avj olgan. Sovet hokimiyatiga qarshi fitna uyushtirganlikda ayblangan ko‘plab davlat va partiya arboblari, ziyolilar qatl etildi yoki GULAG lagerlariga yuborilgan. O‘zbekistonda ham ko‘plab taniqli shaxslar, jumladan, olimlar, shoirlar, muharrirlar va siyosiy arboblari qatag‘on qilindi. Ta‘qiblarning

¹⁰⁷ Qozog‘iston Respublikasining Turkiston viloyatidagi Iqon qishlog‘ida joylashgan mazkur muzey, 1910–1978-yillari yashagan mashhur o‘zbek shoiri Mirtemir xotirasiga bag‘ishlangan. 1930-yillarning siyosiy qatag‘onlari to‘lqinida u 1932-yil 7-avgustda “aksilinqilobiy faoliyat”da ayblanib hibsga olingan. 1934-yilda esa jazoni o‘tash maqsadida Moskva-Volga kanali qurilishiga yuboriladi – bu qurilish sovet repressiv tizimining majburiy mehnat lagerlariga asoslangan eng yirik loyihalaridan biri edi.

¹⁰⁸ Oybek muzeyi O‘zbekiston SSRning 1980-yil 23-fevral 148-son Qaroriga va O‘zbekiston madaniyat ministirligining 1980-yil mart oyidagi 129a-son buyrug‘iga muvofiq tashkil etilgan, ilmiy-targ‘ibot va ilmiy-tadqiqot tashkilotidir. Uy-muzeyining asosini uning fondi va ekspozitsiya qismlari tashkil etadi. Muzey fondi va ekspozitsiyasi Oybekning shaxsiy buyumlari, qo‘lyozma va kitoblar, fotosurat va kinohujjatlar, orden va medallar, antiqa buyumlar, san‘at asarlaridan iborat. Muzeydagi hujjat va buyumlar O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi tasdiqlangan tematik struktura rejasi asosida saqlanadi va namoyish qilinadi. Muzeyning 1980–2012-yillardagi faoliyatiga doir hujjatlari M.Darmonova tomonidan arxivlashtirilgan.

qurbonlari orasida 100 000 ga yaqin o'zbekistonlik bor, ulardan 13 000 nafari otib tashlangan.

3. 1940–1950-yillardagi ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi qatag'onlar. Ikkinchi jahon urushi yillarida “xalq dushmanlari” sifatida ayblangan millatlar deportatsiya qilingan. Bu jarayonda qrim tatarlari, ingushlar, chechenlar va koreyslar majburan O'zbekistonga ko'chirilgan. O'zbek ziyolilari va adiblari hali ham mafkuraviy nazorat ostida bo'lib, stalinchilik siyosatiga zid g'oyalarni yoritganlari uchun ta'qib qilingan.

4. 1960–1980-yillardagi sovet hokimiyatiga qarshi guruhlarining ta'qib qilinishi. 1960-yillari inson huquqlari uchun kurashganlar va milliy uyg'onish harakati vakillari ta'qibga uchragan. 1970–1980-yillari sovet tizimidagi korrupsiyaga qarshi chiqqanlar qamoqqa olingan. Bunga misol qilib, “paxta ishi” deb atalgan kompaniyani keltirish mumkin.

5. 1980-yillar oxiri – 1991-yili sovet hokimiyatining zaiflashishi va qatag'onlarning susayishi. Mixail Gorbachyovning “qayta qurish” siyosati boshlanganidan so'ng, siyosiy qatag'onlar biroz kamaygan. 1991-yili O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sovet davrida nohaq qatag'on qilinganlar oqlangan.

Tadqiqotning “**Qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish va tarixiy adolatning tiklanishi**” deb nomlangan to'rtinchi bobida mustaqillik yillarida qatag'on siyosati va uning fojiali oqibatlarini o'rganish, siyosiy qatag'on qurbonlarining oqlov jarayonlari ochib berilgan.

Ushbu bobning “**Qatag'onga uchragan shaxslarning oqlanishi va uning tarixiy ahamiyati**” deb nomlangan birinchi paragrafida qatag'on qurbonlarini reabilitatsiya qilish jarayonini ham tahlil qilingan. Manbalar tahliliga ko'ra, Stalin vafotidan so'ng SSSRda siyosiy qatag'on qurbonlarini reabilitatsiya qilish jarayoni boshlangan. Bu davrda jamiyatni demokratlashtirish sari dastlabki qadamlar qo'yildi, shuningdek, o'tgan fojiali voqealarni huquqiy va siyosiy jihatdan qaytadan baholash, tahlil qilish va fikr yuritish uchun sharoit paydo bo'lgan. Ayrim noyob hujjatlar e'lon qilingan bo'lsa-da, reabilitatsiya jarayonini belgilab beruvchi aniq qonun mavjud emas edi. 1956-yil 10–14-oktabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan O'zbekiston ziyolilarining I s'ezdida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi kotibi N.A.Muhiddinov ma'ruza qilgan. Unda u O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti taqdimnomasiga asosan nohaq ayblangan va siyosiy ta'qiblarga uchraganlar reabilitatsiya qilingani haqida ma'lumot bergan¹⁰⁹.

1955-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, lager va koloniyalarda 309088 mahbus aksilinqilobiy jinoyatlar uchun qamoq jazosini o'tayotgan bo'lsa, 1956-yil 1-yanvariga qadar 113735 kishi ozod qilingan, 1959-yil 1-apreliga kelib yana 11027 kishi ozod etilgan. Bu jarayon 1953-yil mart oyida Iosif Stalin vafotidan so'ng SSSRda amalga oshirilgan siyosiy “yumshash” va repressiya qurbonlarini reabilitatsiya qilish harakatining davomi sifatida amalga oshirilgan.

1989-yil 16-yanvarda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi M. Gorbachyov va Prezidium kotibi G. Menteshashvili tomonidan “30-40 va 50-yillarning boshlarida sodir etilgan qatag'on qurbonlariga nisbatan adolatni tiklash bo'yicha

¹⁰⁹ Мухитдинов Нуриддин. Кремлда ўтган йилларим. – Т. 206–207-бетлар.

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon imzolandi. Farmon SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi M. Gorbachyov va SSSR Oliy Soveti Prezidiumi kotibi G.Menteshashvili tomonidan imzolangan¹¹⁰. Farmonning qabul qilinishi bilan siyosiy qatag‘on qurbonlariga oid tergov ishlari ko‘rib chiqila boshlangan. 1992-yil 15-sentabrdagi 06/2-5/691-son O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Davlat va jamiyat xavfsizligi, mudofaa va harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish masalalari qo‘mitasi raisi V.Niyozmatovga yuborilgan xatda qayd etilishicha, SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1989-yil 16-yanvardagi “30–40 va 50-yillarning boshlarida sodir etilgan qatag‘on qurbonlariga nisbatan adolatni tiklash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati hokimiyat organlari bilan 1992-yil oktabr oyiga qalar sudlar va prokuratura organlari tomonidan 23710 nafar shaxsga oid 16959 ta arxiv tergov ishi ko‘rib chiqilgan. Shundan 16609 ta tergov ishi bo‘yicha 22968 nafar shaxs reabilitatsiya qilingan. 350 ta tergov ishi bo‘yicha 742 nafar shaxsni reabilitatsiya qilish asosli ravishda rad etilgan¹¹¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi farmoyishiga¹¹² ko‘ra, ayrim sabablarga ko‘ra reabilitatsiya qilinmay qolib ketgan qatag‘on qurbonlari nomlarini oqlash yuzasidan 2021-yil 25-avgust kuni Nosirxon to‘ra va boshqalarga oid (92 nafar shaxsga nisbatan), Ibrohimbek Chaqaboyev va boshqalarga oid (16 nafar shaxsga nisbatan), Teregulov Usman Igmatulovich va boshqalarga oid (4 nafar shaxsga nisbatan), Daminov Latif, Sulstonov G‘ofur, Kiramov Kivamga oid jinoyat ishi ko‘rib chiqildi. 2022-yil 19-dekabr kuni 173 nafar shaxsga oid 4 ta, 2023-yil 19-aprel kuni 208 nafar shaxsga oid 3 ta, 2023-yil 24-avgust kuni ochiq sud majlislarida 240 nafar shaxs, 2023-yil 1-dekabr kuni 174 nafar, 2024-yil 6-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan qatag‘on qurboni bo‘lgan 205 nafar shaxsga nisbatan Oliy sud Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati apellyatsiya instansiyasining oqlov hukmlari chiqarildi. Umuman olganda, “So‘nggi sakkiz yilda 1200 dan ziyod jafokash bobolarimiz nomi oqlangan”¹¹³.

To‘rtinchi bobning “*Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarining tashkil etilishi*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida 1991-yili yuz bergan tarixiy voqealar barcha sohalar singari O‘zbekistondagi muzeylar faoliyatida ham tub o‘zgarishlar qilinishiga turtki bo‘lganligi ochib berilgan.

Qatag‘on qurbonlarini o‘rganish hamda ularning nomlarini abadiylashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 1999-yil 12-mayda maxsus Farmoyish e‘lon qildi. Shuningdek, 22-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Vatan va xalq ozodligi yo‘lida qurbon bo‘lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Ushbu hujjatlar asosida “Shahidlar xotirasi” hayriya jamg‘armasi tashkil etildi va Toshkent shahrida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo qilindi. 2001-yil 1-mayda O‘zbekiston

¹¹⁰ Реабилитация: Как это было. Март 1953 – февраль 1956. Документы. Под редакцией Яковлева А.Н. – М. 2000. – С. 180–181.

¹¹¹ O‘zMA. M-69-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 117-yig‘majild, 13-varaq.

¹¹² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 8 октябрдаги “Қатагон қурбонларининг меросини янада чуқур ўрганиш ва улар хотирасини абадийлаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 5598-сон фармойиши.

¹¹³ <https://kun.uz/news/2025/08/29/shahidlar-xotirasi-xiyobonida-qatagon-qurbonlari-yod-etildi>

Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, 31-avgust mamlakatimizda “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni” deb e‘lon qilindi¹¹⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 1-maydagi farmoniga¹¹⁵ muvofiq mustabid tuzum yillarida qatag‘on etilgan fidoiy vatandoshlarimizning xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi faoliyatini tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori¹¹⁶ qabul qilindi. Qarorda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” Kengashi, “Shaxidlar xotirasi” xayriya jamg‘armasining Fanlar akademiyasi tarkibida “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyini tashkil etish masalasi belgilandi. 2002-yil 31-avgustda Toshkent shahridagi “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuida Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi barpo etildi¹¹⁷.

2017-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyiga tashrif buyurib, Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyatining siyosiy qatag‘oni, unga qarshi olib borilgan kurash tariximizda o‘z ifodasini topishini ta’kidladi. Shuningdek, zulm va zo‘ravonlikka qarshi, yurt ozodligi yo‘lida qatag‘on qurboni bo‘lganlarni xotirasini abadiylashtirish, yoshlarni vatanparvar, o‘z yurtiga sadoqatli qilib tarbiyalash zarurligini aytib o‘tdi¹¹⁸.

Ayni paytda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ota-bobolarimiz boshidan kechirgan azob-uqubatlar, zulm va ekspluatatsiyaga qarshi kurash hamda Vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lida qurbon bo‘lganlar xotirasini muqaddas bilishi lozimligi ta’kidlandi. Bu orqali yoshlarda vatanparvarlik, millatparvarlik his-tuyg‘ularini mustahkamlash, yurt farovonligi yo‘lida sadoqat bilan faoliyat yuritishga intilishni kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev bu borada shunday ta’kidladi: *“Ajdodlarimizning Vatan tinchligi va ozodligi yo‘lidagi kurashi – bugungi kun yoshlari uchun ibrat maktabidir. Har bir viloyatda Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyining filiallarini tashkil qilishimiz kerak. Ular universitet va institutlar qoshida tashkil etilsa, ayni muddao bo‘ladi. Qatag‘on qurbonlari xotirasi bo‘yicha maktab darsliklarida maxsus dastur asosida o‘qitish tizimini ishlab chiqish zarur”*¹¹⁹.

Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyining jamiyat hayotidagi ahamiyati yuqori baholanib, uni muzeylar ichidagi muzey darajasiga ko‘tarish lozimligi ta’kidlandi. Shuningdek, bunday muzeylar Andijon, Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Qashqadaryo va har bir viloyat markazida yoki universitetlar qoshida tashkil etilishi lozimligi

¹¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 1 майдаги “Қатағон қурбонларини ёд этиш кунини белгилаш тўғрисида”ги ПФ-2837-сон фармони.

¹¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 1 maydagi “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to‘g‘risida”gi PF-2837-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/177255>

¹¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 8-noyabrdagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 387-son qarori. <https://lex.uz/docs/687521>

¹¹⁷ “Қатағон қурбонлари хотираси музейи”ни давлат рўйхатиға ўтказиш тўғрисидаги №000719-гувоҳнома. Реестрдаги тартиб рақами – 10-0007719. Тошкент шаҳар Юнусобод ҳокимининг 2002 йил 21 ноябрдаги 1988-сонли қарорига асосан берилган. Ташкилий-ҳуқуқий шакли: муассаса. Тармоқ коди: музейлар.

¹¹⁸ Андиджон вилояти Қатағон қурбонлари хотира китоби (1865–1991 йиллар) I қисм [Матн]: илмий-оммабоп / Шамсутдинов Р.Т. [ва бошқ.]. Т. 2021. 3-бет.

¹¹⁹ “Xalq so‘zi” gazetasi. 2001-yil 2-may.

alohida qayd etildi¹²⁰

Mazkur paragrafda 2017-yil 22-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan muzey Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o‘tkazilib, uning faoliyati takomillashtirilganligi, qarorga muvofiq hududlardagi oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va 12 ta viloyatdagi oliy ta’lim muassasi tuzilmasida muzey tashkil etilganligi¹²¹ hamda ushbu muzeylarning faoliyati, muammolari tahlil qilingan.

“Yangi O‘zbekistonda siyosiy qatag‘on qurbonlarini tadqiq etish va ularning xotirasini abadiylashtirish ishlari” deb nomlangan paragrafda so‘nggi yillarda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati va Sovet totalitar tuzumi davrida asossiz ravishda “aksilinqilobchi”, “xalq dushmani” sifatida qatag‘on qilingan vatanparvarlar hamda ma’rifatparvar ziyolilar xotirasini abadiylashtirish, ularning ma’naviy-ma’rifiy merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning mazmuni ochib berilgan. Ushbu jarayon, ayniqsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy tarixiy xotirani tiklash va uning avlodlar ongida mustahkam o‘rin egallashini ta’minlashga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy faoliyat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning xotirasini abadiylashtirish maqsadida yurtimizda maktab, muzey, bog‘ va xiyobonlar tashkil etilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2017-yili ma’rifatparvar Is’hoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktab-internat tashkil etilib, uni o‘z ichiga olgan majmua barpo etildi. Prezident Shavkat Mirziyoev 2018-yil 3-may kuni ushbu majmuaga tashrif buyurib, Ibrat domlaning fidokorona hayoti va merosini yuksak baholadi hamda ushbu maktabni ko‘p tilli zamonaviy kadrlar tayyorlashga ixtisoslashtirish zarurligini ta’kidladi. Shu maqsadda yetakchi OTMlardan malakali mutaxassislar jalb etildi. 2022-yil 9-iyunda Prezident qaroriga binoan Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti tashkil etildi.

2019-yili Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi va muzey tashkil etilib, buyuk adib haykali o‘rnatildi. Ushbu maskan adib merosini chuqur o‘rganish va yosh avlodni milliy uyg‘onish g‘oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

2020-yili Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvar qori Abdurashidxonov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. Shu yili Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘da “Adiblar hiyoboni” barpo etilib, jadid harakatining yetakchi namoyandalariga haykallar o‘rnatildi.

2020-yil 8-oktabrda qabul qilingan Prezident farmoyishi asosida qatag‘on qurbonlari merosini chuqur o‘rganish, arxiv materiallarini aniqlashtirish va jamoatchilikka yetkazish vazifalari belgilandi. Natijada, Qoraqalpoqiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida jami 14 ta “Qatag‘on qurbonlari” Xotira kitoblari tayyorlandi. Ularga 40 mingga yaqin qatag‘on qurboni bo‘lgan vatandoshlarimizga oid ma’lumotlar kiritildi. Birgina 2022-yilning o‘zida

¹²⁰ Қатағон қурбонлари хотира китоби Андижон вилояти (1865–1991 йиллар) I қисм [Матн]: илмий-оммабоп / Тузувчи: Р.Шамсутдинов [ва бошқ.]. – Т. 2021. – 448 б.; Ўша асар. II қисм. – Т. 2021. – 448 б.

¹²¹ Зикруллаев М. Маърифатпарвар боболаримиз хотираси муқаддас. <https://uza.uz/y3/posts/marifatparvar-bobolarimiz-khotirasi-mu-аддас-30-10-2020>.

10 ga yaqin qatag'on qurbonlari hamda o'sha davr tarixiga bag'ishlangan kitoblar nashr etildi¹²².

Mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, tarixiy haqiqatlarni tiklash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan muhim tashabbuslardan biri, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi qaroridir¹²³.

2025-yilning 29-martidan 4-apreligacha YUNESKONing Parijdagi bosh qarorgohida Markaziy Osiyo tasviriy san'ati tarixi va xalq xotirasini yoritishda alohida o'rin egallagan, o'zbek xalqi hayoti va madaniyatining noyob hujjatchisi bo'lgan birinchi fotosuratchi hamda kinotasvirchi Xudoybergan Devonov ijodiga bag'ishlangan "Zamonlar osha nigoh: Xudoybergan Devonov merosi" deb nomlangan ko'rgazma o'tkazildi¹²⁴.

Umuman olganda, amalga oshirilayotgan tashabbuslar milliy o'zlikni anglash, ma'naviy uyg'onish va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, ayniqsa, jadidlar merosini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Bunday faoliyatlar adabiyot va madaniyat taraqqiyoti, shuningdek, kelajak avlodning tarixiy xotira hamda milliy g'ururini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

O'zbekistonda mustamlaka va sovet tuzumi boshqaruvi repressiv siyosat bilan ajralib turgan. Ushbu davrda siyosiy qatag'onlar, milliy ozodlik harakatlarini bostirish hamda intellektual faoliyatni cheklash jarayonlari mustamlaka va Sovet rejimining siyosiy maqsadlariga xizmat qilgan. Ularning asosiy maqsadi milliy mustaqillikni zaiflashtirish va etnik hamda ijtimoiy guruhlarning birlashuvini oldini olishdan iborat edi. Shu bois siyosiy repressiyalar va zo'rvonliklar keng ko'lamda amalga oshirilgan. Arxiv hujjatlari, davriy matbuot nashrlari, muzey ekspozitsiyalari hamda tarixiy hujjatlar orqali ushbu siyosatning xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy sohalarga ta'siri, shuningdek, milliy va etnik guruhlar o'rtasidagi ijtimoiy qarama-qarshiliklar yanada ravshan ko'rsatildi va o'sha davrning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy holatini tushunishga imkon yaratdi.

Ushbu mavzuni tahlili natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarga sabab bo'lib, xalqlarning an'anaviy hayot tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Mustamlakachilikning kuchayishi fonida xalqlar milliy ozodlik

¹²² 2009-yildan buyon nashr etib kelinayotgan "Tarixning noma'lum sahifalari" (mas'ul muharrirlar: B.Xasanov, N.Karimov) to'plamini alohida qayd etib o'tish joiz. 2022-yilgi mazkur to'plamning 10-kitobi, 2024-yili 11-kitobi nashrdan chiqarildi.

¹²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-270-son qarori. <https://www.lex.uz/docs/7027939>

¹²⁴ Ko'rgazma davomida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hukumati va YUNESKO o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida rasmiy kelishuv imzolangan. Mazkur tantanali marosimda Samarqand shahri 2025 yilda YUNESKONing 43-Bosh konferensiyasini o'tkazish joyi sifatida rasman e'lon qilingan.

harakatlariga qo‘shilib, huquqiy va madaniy identitetni saqlash uchun kurash olib bordilar. Arxiv manbalari mazkur jarayonlarni yanada to‘laroq yoritib, turkistonliklar o‘z mustaqilligini yo‘qotmaslik va jamiyatni qayta tiklash uchun olib borgan sa‘y-harakatlarini tasdiqlaydi. Shuningdek, mazkur hujjatlar mustamlakachilik siyosatiga nisbatan turli ijtimoiy qatlamlarning munosabatini ham ochib beradi.

2. Milliy matbuot nashrlari mustamlakachilikka qarshi ma‘naviy kurashning muhim quroli sifatida xalqning milliy ongini uyg‘otish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda hal qiluvchi o‘rin tutgan. Rossiya imperiyasi ma‘muriyati tomonidan kuchli senzura va ta‘qiqqlarga uchraganiga qaramay, bu nashrlar ozodlik, hurriyat va milliy mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib qilib, turkistonliklarni safarbar etishda ta‘sirchan vosita bo‘lgan. Arxiv manbalari va matbuot materiallarining ilmiy tahlillari shuni tasdiqlaydiki, milliy matbuot axborot tarqatish vositasi, mustamlakachilikka qarshi nafaol va faol qarshilikning ta‘sirli shakli sifatida ham faoliyat yuritgan. Bu esa uning milliy ozodlik harakatlaridagi o‘rnini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

3. Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari garchi tor-mor qilingan bo‘lsa-da, ular xalqning mustaqillikka intilishi va iroda namoyishi sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Ushbu qo‘zg‘olonlar faqat bir davr hodisasi emas, balki mintaqaning mustamlakachilikka qarshi kurash tajribasini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Shu bois, muzey fondlarini yangi ekspozitsiyalar bilan boyitish va milliy ozodlik harakatlarining sabablarini, jarayonlarini hamda natijalarini chuqur tahlil qiluvchi ilmiy tadqiqotlar asosida qayta tashkil etish zarur.

4. Sovet hokimiyatining 1917–1924-yillardagi qatag‘on siyosati mahalliy aholiga qarshi bosim va zulmni kuchaytirgan bo‘lib, bu jarayon arxiv manbalarida o‘z aksini topgan. Turkistondagi qarshilik harakatlari va milliy madaniyatni asrab qolishga uringan ziyolilar qat‘iy nazorat va ta‘qiblarga uchragan. Rasman milliy madaniyat va tillarni rivojlantirish siyosati e‘lon qilingan bo‘lsa-da, amalda ruslashtirish va sotsialistik mafkurani majburiy qabul qilishga yo‘naltirilgan choratadbirlar amalga oshirilgan. Bundan tashqari, milliy boyluklarni natsionalizatsiya qilish va mahalliy aholining iqtisodiy mustaqilligini cheklash orqali ularning siyosiy va ijtimoiy faoliyati zaiflashtirilgan. Bu esa Turkiston aholisining siyosiy irodasini sindirishga, milliy madaniyat va an‘analarning susayishiga olib kelgan.

5. 1917–1924-yillari milliy taraqqiyot g‘oyasiga qarshi yo‘naltirilgan mafkuraviy tazyiq xalqning ma‘naviy hayotiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatgan. Kommunistik mafkura vatanparvarlik va milliy mustaqillikka intilishni xavf sifatida baholab, milliy ziyolilarning fikriy erkinligini cheklagan. Davriy matbuot esa mafkuraviy nazorat vositasiga aylanib, mustabid tuzum siyosatiga qarshi chiqqan shaxslar “xalq dushmani” sifatida badnom qilingan. Shuningdek, milliy ongni saqlab qolish va rivojlantirishga harakat qilgan ziyolilar turli tazyiqlarga uchragan bo‘lsa-da, ularning ijodi xalq ongini uyg‘otishda muhim rol o‘ynagan.

6. Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi va milliy ozodlik kurashlarining bostirilishi mintaqaning mustaqillikka intilishini cheksiz chekladi. Sovet hokimiyatining harbiy va mafkuraviy tazyiqlari milliy davlatchilik an‘analarning susayishiga, iqtisodiy inqiroz va ommaviy qatag‘onlarga olib keldi. Bundan

tashqari, muzey manbalariga asoslanib aytish mumkinki, milliy ozodlik g'oyasi xalq ongida saqlanib, keyingi mustaqillik harakatlariga asos bo'ldi.

7. Sovet hokimiyatining 1924–1980-yillardagi qatag'on siyosati o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotiga katta zarar yetkazdi. Arxiv hujjatlari ko'rsatishicha, sovet hokimiyati o'z hukmronligini mustahkamlash maqsadida ziyolilar, boy sarmoyadorlar, ulamolar va istiqlolchilik kurashi yetakchilarini qatag'on qilgan. Bu jarayon faqat qurolli kurash bilan emas, balki turli usul va vositalar orqali ham amalga oshirilgan. Natijada, 100 000 dan ortiq odamlar azob-uqubatlarga duchor bo'lib, oilalari tarqalgan va mol-mulklari tortib olingan. Tarixiy arxiv manbalarida yashirin saqlangan bu jarayonlar, sovet hokimiyatining qatag'on siyosati mahkumlar hamda mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotiga ham salbiy ta'sir qilganligini ko'rsatadi.

8. Stalincha qatag'on siyosati o'zbek xalqining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Davriy matbuot va arxiv hujjatlari qiyosiy tahliliga ko'ra, bu jarayon rejali amalga oshirilib, davlat xavfsizligini ta'minlash va muxolifatni yo'q qilish maqsadida olib borilgan. Qatag'on siyosatining natijasida ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy rivojlanish orqaga surildi, ziyolilar va mutaxassislar o'z faoliyatlarini bajara olmagan. Matbuot manbalari bu jarayonlarning tarixiy ahamiyatini yoritib, senzura va ta'qiblarning axborot tarqatishga ta'sirini ko'rsatadi.

9. 1924–1980-yillardagi qatag'onlar o'zbek xalqining intellektual va madaniy rivojlanishini sekinlashtirib, minglab begunoh insonlarning hayotiga ta'sir ko'rsatdi. Bu siyosat rejali ravishda amalga oshirilib, jamiyat hayotining barcha jabhalariga salbiy ta'sir etdi. Ushbu jarayonlarni o'rganishda muzeylar muhim manba bo'lib, shaxsiy buyumlar, arxiv hujjatlari va interaktiv taqdimotlar orqali bu fojealarni yoritadi. Muzey ekspozitsiyalari jabrlanganlar taqdirini aks ettiradi, sovet mafkurasining soxta tasavvurlarini fosh etishga ham xizmat qiladi.

10. Qatag'on qurbonlarini oqlash jarayoni noo'rin ta'qiblarga uchragan shaxslarning huquqiy rehabilitatsiyasini ta'minlab, ularning sha'ni va nufuzini tiklash, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish hamda kelajak avlodlarga tarixiy haqiqatni yetkazish vazifasini bajardi. Mazkur jarayon faqat ayrim shaxslarni oqlash bilan cheklanmay, balki butun jamiyatda totalitar tuzumning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, adolat tamoyillarini mustahkamlash va davlat siyosatida inson huquqlarini ustuvor qilishga qaratilgan tizimli sa'y-harakatlarning muhim qismi sifatida amalga oshirildi.

11. Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari tarixiy adolatni tiklash, totalitar tuzumning asoratlarini fosh etish va kelajak avlodga saboq berishda muhim ahamiyatga ega. Ular milliy tarixni xolisona o'rganish, jabrlangan ziyolilarning merosini tiklash va inson huquqlari hamda demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Muzeylar tashkil etayotgan ko'rgazmalar, ma'rifiy tadbirlar va ilmiy anjumanlar orqali xalqning tarixiy xotirasi asrab-avaylanadi. Shu bois, qatag'on qurbonlarining xotirasini abadiylashtirish va merosini o'rganish jamiyatning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

12. Yangi O'zbekistonda siyosiy qatag'on qurbonlarining hayoti, faoliyati va ilmiy merosini tadqiq etish hamda ularning xotirasini saqlash milliy tarixning haqqoniy sahifalarini tiklash va xalqimizning ma'naviy merosini asrab-avaylashda

muhim ahamiyatga ega. Jadidchilik harakati va mustamlaka hamda sovet tuzumi davrida ta'qib qilingan ziyolilar, ma'rifatparvarlar va milliy mustahkamlik yo'lida faoliyat yuritgan shaxslarning xotirasini abadiylashtirish, ularning ijodiy merosini chuqur o'rganish jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy uyg'onish uchun muhimdir. Bu jarayonlar milliy adabiyot va madaniyatning rivojiga hissa qo'shadi hamda kelajak avlodda tarixiy voqealarga hurmat va ma'naviy yetuklikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Turkistonda mustamlaka tuzumiga qarshi olib borilgan barcha xalq qo'zg'olonlariga oid manbalarni jamlash va ular asosida ko'p jildlik kitoblar nashr qilish;

2. Sovet tuzumi davrida amalga oshirilgan siyosiy qatag'onlar va ularning qurbonlari haqida hujjatlarni kengroq jamoatchilikka taqdim etish, shu bilan birga, ushbu hujjatlarni ilmiy hamda pedagogik maqsadlarda foydalanish uchun hujjatlar to'plamlarini chop etish;

3. Muzeylar va ta'lim tizimida tarixiy xotirani saqlash, jamiyatga tarixiy haqiqatni yetkazish, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish tamoyillarini shakllantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida "O'zbekiston muzeylari" fanini joriy etish lozim. Ushbu fan doirasida Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyini tashkil etilishi tarixi, uning manbalari o'rganilishi kerak.

4. Muzeyshunoslik va tarixiy manbashunoslikni rivojlantirish uchun O'zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy qatag'onlarni tahlil qilishda muzeyshunoslik hamda manbashunoslik sohalarida ilmiy ishlar olib borishni davom ettirish kerak. Ayniqsa, arxivlar, shaxsiy arxiv va kutubxonalar hamda xotiralar kabi manbalarni chuqur o'rganish, ularni ilmiy ishlanmalarda qo'llash zarur.

5. O'zbekiston Respublikasidagi umumta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida muzeylar tashkil etish kerak. Bunday muzeylar o'lkashunoslik, milliy tarix va geografiya, siyosiy qatag'onlar tarixi hamda uning qurbonlari xotirasiga oid ekspozitsiyalarni o'z ichiga olishi zarur. Qatag'onlar davriga oid ekspozitsiyalarning maktab muzeylarida shakllantirilishi tarixiy xotirani asrash, fuqarolik ongini mustahkamlash va yosh avlodda milliy o'zlikni qaror toptirishda muhim omildir.

**ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL AT THE STATE MUSEUM OF
HISTORY OF UZBEKISTAN FOR AWARDING THE DEGREE OF
DOCTOR OF SCIENCES (DSc) ON THE BASIC OF THE SCIENTIFIC
PhD.05/2025.27.12.Tar.07.01**

**STATE MUSEUM OF MEMORY OF THE VICTIMS OF
THE REPRESSIONS UNDER THE CABINET OF MINISTERS OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

DARMONOVA MASHKHUROKHON ADILJON QIZI

**SOURCE STUDIES AND PRINCIPLES OF MUSEIFICATION OF
THE HISTORY OF REPRESSION POLICY IN UZBEKISTAN
(The Second Half of the 19th Century – 20th Century)**

07.00.08 – Historiography, source studies, and methods of historical research

17.00.06 – Museology. Conservation, restoration, and preservation of historical and
cultural objects

**ABSTRACT OF DOCTORAL (DSc) DISSERTATION
IN HISTORICAL SCIENCES**

Tashkent, 2026

The theme of the dissertation of Doctor of Science (DSc) was registered by the number B2025.2.DSc/Tar508 at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

The dissertation was carried out at the State Museum of Memory of the Victims of Repression under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.

The abstract of dissertation has been posted in three language (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of Scientific Council (<https://history-museum.uz>) and Information and education portal “ZiyoNET” (www.ziynet.uz).

The scientific consultant:	Bakhtiyor Vakhapovich Hasanov Doctor of Historical sciences, Professor
Official opponents:	Alisher Khudoyberdievich Doniyorov Doctor of Historical sciences, Professor
	Munisa Sabirovna Muhamedova Doctor of Historical sciences (DSc), Professor
	Feruz Sayfullaevich Boboyev Doctor of Historical sciences (DSc)
Leading organization:	National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

The defense of the Dissertation will be held at the meeting of the one-time Scientific Council for awarding scientific degree of Doctor of Sciences (DSc) on the basis of the Scientific Council PhD.05/2025.27.12.Tar.07.01 awarding scientific degree at the State Museum of the History of Uzbekistan at ___ clock «___» _____, 2026. (Address: 100029, Tashkent, Sharaf Rashidov street. Apartment 3. Small meeting hall of the State Museum of the History of Uzbekistan. Tel.: (99871) 239-10-83; fax: (99871) 239-10-83, e-mail: uzb.historymuseum@gmail.com the State Museum of the History of Uzbekistan)

The doctoral dissertation can be reviewed in the Fundamental Library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (Registered number № ____). (Address: 100170, Tashkent, Ziyolilar Street, 13. Tel.: (99871) 262-74-58; Fax: (99871) 262-34-41).

Abstract of dissertation is delivery «___» _____, 2026.
((Registry protol №__ dated «___» _____, 2026).

J.Kh. Ismailova
Chairman of the Scientific Council on awarding academic degrees, Doctor of Historical sciences, Professor

T.Kh. Norkobilov
Scientific secretary of the Scientific Council on awarding the scientific degrees, PhD, Senior research fellow

R.E. Kholiqova
Chairman of Scientific seminar under Scientific Council on awarding academic degrees, Doctor of Historical sciences, Professor

INTRODUCTION

(Annotation of the Doctor of Science (DSc) Dissertation)

Relevance and Necessity of the Dissertation Topic. Currently, there is a tendency of growing global interest in studying the consequences of colonialism and totalitarian regimes. Researching the history of Uzbekistan from the perspectives of source studies and museology is of not only national but also international significance. Studies in this direction play an important role in restoration of historical justice, exposing crimes committed against humanity, and conveying an accurate historical picture to future generations. Furthermore, a thorough examination of archival documents and periodical press materials related to the repressions featuring the colonial period and the Soviet regime, their introduction into academic circulation, and their presentation to the wider public through museums underscore the necessity and relevance of this research topic.

The analysis of existing sources on the policy of repression, the study of its consequences, and the examination of its reflection in museology have become the focus of attention in a number of foreign research centers. In particular, several academic institutions in Europe and the United States are conducting extensive studies on colonial policies and the repressive practices of the Soviet regime. Establishing and maintaining international cooperation with these prominent foreign research centers is of great importance for studying archival sources, developing museums, and communicating historical truth to the global community.

Comprehensive study of the most complex and controversial periods of national history has become one of the key priorities in the process of building a democratic society and a legal state in New Uzbekistan. In particular, providing an objective assessment of events that happened during the Soviet era, drawing necessary conclusions and gaining thoughts from them, and familiarizing the people, especially the younger generation with authentic history have been elevated to the level of state policy. As it has been emphasized: “In the current complex and challenging period, it is essential to comprehensively strengthen our independence, restore the unknown pages of our history and study them in depth from a scholarly perspective, recognize the individual, their rights and freedoms as the highest value, and on this basis, foster among our compatriots, especially the youth, a sense of responsibility for the fate and future of the Motherland, strengthen their civic position, and educate them in the spirit of appreciating the value of today’s peaceful, free, and independent life”¹. From this perspective, the study of Uzbekistan’s colonial and Soviet periods, in particular the political repressions of the late 19th – 20th centuries, their tragic consequences, the identification of repression victims by name, and the examination of their individual destinies determines the scholarly relevance of this research.

This research contributes, to a certain extent, to the implementation of the objectives outlined in a number of normative and legal documents of the Republic

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-270-son qarori. <https://www.lex.uz/docs/7027939>

of Uzbekistan, including: Presidential Command No. PF-60 of January 28, 2022, “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”; Presidential Resolution No. PQ-5150 of June 19, 2021, “On the Organization of Activities of the Cultural Heritage Agency under the Ministry of Tourism and Sports of the Republic of Uzbekistan and Measures for the Innovative Development of the Sector”; Presidential Resolution No. PQ-201 of May 30, 2024, “On the Establishment of the State Museum of Jadid Heritage”; Presidential Resolution No. PQ-270 of July 19, 2024, “On Expanding Efforts to Study, Promote, and Commemorate the Lives and Activities of Our Compatriots Falling Victim to Political Repressions”; and Presidential Resolution No. PQ-462 of December 27, 2024, “On Celebrating the 150th Anniversary of Mahmudkhoja Behbudi – Founder of the Turkestan Jadid Movement, Prominent Writer, Public Figure, Publisher, and Educator”, as well as other relevant legal and regulatory acts pertaining to the field.

Correspondence of research to the priorities of the development of science and technology of the republic. The research has been conducted within the framework of the Republic’s priority area under Section I of the national program for the development of science and technology “Formation and Implementation of a System of Innovative Ideas for the Social, Legal, Economic, Cultural, and Spiritual-Educational Development of an Information-Based Society and a Democratic State”.

Review of foreign scholarly research on the dissertation topic². Research on the history and consequences of the repressive policies held in Uzbekistan during the late 19th and 20th centuries has been conducted at various leading research centers and universities around the world. Among them are the University of Potsdam – Institute for Soviet Studies (Germany), the Hoover Institution (Washington, USA), the London School of Economics and Political Science (LSE) – Department of International History (United Kingdom), the Pilecki Institute (Poland), the Institute of European, Russian, and Eurasian Studies at Carleton University (Ottawa, Canada), the “Memorial” International Historical, Educational, Charitable and Human Rights Society (Moscow, Russia), the State Museum of the History of the GULAG (Moscow, Russia), the Center for Near Eastern Studies at the University of Tokyo (Tokyo, Japan), Istanbul University, Marmara University (Istanbul, Turkey), Ege University (Izmir, Turkey), the Museum of Remembrance of Victims of Political Repressions and the Alzhir Memorial Complex (Kazakhstan), and the Esimde Scientific Society (Bishkek, Kyrgyzstan), among others.

As a result of foreign scholarly research, a number of significant academic findings have been achieved concerning the repressive policies of the Russian

² The review of foreign research institutions has been prepared on the basis of followings: <https://www.uni-potsdam.de/en/university-of-potsdam/>; <https://www.hoover.org/>; <https://instytutpileckiego.pl/en/instytut/>; <https://carleton.ca/eurus/>; <https://www.memo.ru/en-us/>; <https://www.culture.ru/institutes/1437/gosudarstvenny-muzei-istorii-gulaga/>; [38](https://park.itc.u-山内昌之センター長のオマーン国訪問tokyo.ac.jp/UTCMES/2011/09/19/%E5%B1%B1%E5%86%85%E6%98%8C%E4%B9%8B%E3%82%BB%E3%83%B3%E3%82%BF%E3%83%BC%E9%95%B7%E3%81%AE%E3%82%AA%E3%83%9E%E3%83%BC%E3%83%B3%E5%9B%BD%E8%A8%AA%E5%95%8F/?lang=en;https://sosyalbilimler.istanbul.edu.tr/tr/_;https://ru.esimde.org/https://turkiyat.marmara.edu.tr/; https://tdae.ge.edu.tr/.</p></div><div data-bbox=)

Empire and Soviet authorities. Scholars at the University of Potsdam (Germany) have examined the repressive policy of the Soviet government in Central Asia and its impact on the local population. The Hoover Institution (USA) has investigated political repressions, their social and economic consequences, and the related phenomena of famine and its victims. At the London School of Economics and Political Science (LSE) – Department of International History (UK), researchers have identified the nature of colonial and Soviet repressions, including mass arrests, deportations, and violations of human rights on the basis of documentary evidence. The Pilecki Institute (Poland) has conducted interdisciplinary and international studies aimed at analyzing the key political processes of the twentieth century, particularly the regimes of Nazism and Soviet totalitarianism and their global consequences. The Institute of European, Russian, and Eurasian Studies at Carleton University (Canada) has provided scholarly justification that the cholera epidemic of 1892 in Tashkent revealed the essence of colonial policy and demonstrated the government's attempts to fragment local society. The "Memorial" International Historical, Educational, Charitable, and Human Rights Society (Russia) has illuminated the history of Soviet-era repressions, punitive institutions, the GULAG system, labor camps, forced deportations, and the rehabilitation processes of repression victims through archival sources. Similarly, the State Museum of the History of the GULAG (Russia) has contributed to preserving the memory of mass repressions and GULAG victims, promoting awareness of human dignity, and organizing permanent and temporary exhibitions that depict the formation of the repressive system from 1918 to 1956 and its impact on human destinies. The Center for Near Eastern Studies at the University of Tokyo (Japan) has analyzed the lives, activities, persecution, and intellectual-literary legacy of the Turkestan Jadids on a scholarly basis. Studies conducted at the Institute of Social Sciences of Istanbul University, the Institute of Turkic Studies of Marmara University, and the Institute of Turkic World Studies of Ege University (Turkey) have identified the factors that shaped Russian domination in Turkestan and contributed to the transformation of reformist movements into broader nationalist and independence-oriented initiatives which is known as Jadidism and, and at the national level the Young Bukharians. These studies have also examined the lives and activities of Turkestani émigrés (1,853 individuals according to the Turkish government's 1952 decree), their publications, and their struggle against Russian imperial and Soviet rule. They sought to raise global awareness of the situation in Turkestan, promote unity among Turkic peoples, and preserve national identity and historical consciousness. The Museum of Remembrance of Victims of Political Repressions and the Alzhir Memorial Complex (Kazakhstan) have revealed the complex and unique dimensions of Stalin-era political repressions, including the fates, sentences, and living conditions of prisoners, particularly women and their children through the lenses of archival materials and personal records. Finally, the Esimde Society (Kyrgyzstan) has undertaken scientific studies of the history of Kyrgyzstan and Central Asia in the 20th – 21st centuries, aiming to uncover the "white spots" in history, restore historical truth, and commemorate the victims of mass repressions under the

Russian Empire and the Soviet regime.

Studied degree of the problem. The history of repressions carried out during the late 19th and 20th centuries can be examined chronologically through the following groups of scholarly research and literature: 1) Publications and literature produced during the period of Russian colonial rule; 2) Soviet-era works dedicated to the history of repressive policies; 3) Research conducted during the period of independence; 4) Foreign scholarly literature.

The First Group. The first group includes publications from the period of the Russian Empire, primarily official documents issued by the government, as well as memoirs and writings of military and administrative circles. In the second half of the 19th century, numerous works appeared addressing various issues such as the socio-economic life of the region, relations between Bukhara, Khiva, and Russia, the conquest of the khanates, the administration of the territory, and national liberation movements against colonial oppression. Among these authors were M.N.Galkin, A.S.Tatarinov, V.V.Krestovskiy, L.F.Kostenko, M.A.Terentev, A.Maksheev, K.K.Abaza, S.V.Zhukovskiy, D.N.Logofet, N.Pavlov and others. All these works sought to justify, from various perspectives, the aggressive and chauvinistic colonial policy pursued by the Russian Empire in Turkestan. They emphasized the supposed “necessity” of this campaign for the interests of the Empire and portrayed it as a civilizing mission that brought “cultural progress” to the colonized peoples.

A characteristic feature of the authors writing under the influence of the Russian Empire was their failure to analyze events in detail at times, and their complete avoidance of analysis. Their works were written from a one-sided perspective, reflecting solely the interests and viewpoints of the imperial government. They ignored the struggles for freedom and the legitimate interests of the local peoples, while attempting to conceal or justify the violent and coercive nature of colonial rule. Furthermore, the writing style of authors of that period was largely descriptive and narrative: they confined themselves to recounting events and listing facts without engaging in critical evaluation or broader interpretation of the historical reality.

